

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Tarix fakul'teti
"Jahon tarixi" kafedrası

ENG YANGI TARIX (Yevropa mamlakatlari va AQSH)
(1918-1945 yillar)
fanidan ma'ruzalar to'plami

(Bakalavrlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma)

Toshkent – 2014

Muallif: kata o'qituvchi A.F.Rozakov

Ma'sul muharrir: t.f.n. dots. Ya.X.G'afforov

Taqrizchilar: t.f.n. dots. A.G.Xolliyev
t.f.n. dots. D.Yu.Misherev

Taqdim etilayotgan o'quv-uslubiy qo'llanmada **ENG YANGI TARIX (Yevropa mamlakatlari va AQSH) (1918-1945 yillar)** ko'rib chiqilgan

В представленном учебно-методическом пособии рассматриваются основные этапы **Развитие истории стран Европы и США 1918-1945 гг.** в

Qo'llanma O'zMU Tarix fakul'teti o'quv-uslubiy kengashining 2013 yil 8 iyunda bo'lib o'tgan majlisi qarori (bayonnoma № 11) bilan nashrga tavsiya etildi.

Мундарижа.

1. I –Jahon urishidan so‘ng xalqaro munosabatlar .
2. 1918-1939 yillarda Angliya.
3. Fransiya 1918-1939 yillarda.
4. 1918-1933 yillarda Germaniyada Veymar Respublikasi.1933-1945 yillarda fashistik Germaniya (Uchinchi Reyx).
5. Italiya 1918-1939 yillarda.
6. Amerika Qo‘shma Shtatlari 1918-1939 yillarda.
7. Evropada Fashistik mafkurani paydo bulishi.
8. Sharqiy Evropa davlatlarida Fashistik goyalarning vujudka kelishi. Vengriya.
9. Bolgariya 1918-1939 yillarda .
10. Ruminiya 1918-1939 yillarda.

I –Jahon urushidan so‘ng xalqaro munosabatlar .

Birinchi jahon urushidan so‘ng dunyoda yuzaga kelgan kuchlar nisbati urushning oxirida shakllangan xalqaro munosabatlar tizimining ziddiyatlarini aks ettirardi.

Buyuk davlatlar qatorida jiddiy siljishlar ro‘y berdi. Bir tomondan, jahon darajasidagi buyuk davlat - Germaniyaning tor - mor etilishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, dunyoda etakchilik qilishga faol da‘vogar sifatida AQSH ning xalqaro maydonga chiqishi shunday siljishlarning eng sezilarlisi edi.

Buyuk Britaniya, Fransiya va YAponiya bilan bo‘lgan raqobatda g‘olib chiqish uchun AQSH umumjahon kreditori mavqeidan foydalanishga intildi.

Buyuk Britaniya urushdan so‘ng buyuk davlat maqomini saqlab qoldi, garchand AQSH tomonidan ikkinchi o‘ringa surib chiqarilayotgan bo‘lsa xam. Germaniya endi uning dengizdagi va jahon bozorlaridagi raqibi emasdi. YAqin SHarqda Angliya Usmoniylar imperiyasi “merosining” talaygina qismini nazorat qilardi.

Fransiyaning mavqei xam etarlicha kuchli edi. Bosh vazir Klemanso deyarli ikki millionlik armiyaga tayanardi. Ushbu armiyani marshal Fosh demobilizatsiya qilishga shoshilmasdi. Fransiya xavfsizligini Eng yangi davrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.

Birinchi jahon urushidan so‘ng dunyoda yuzaga kelgan kuchlar nisbati urushning oxirida shakllangan xalqaro munosabatlar tizimining ziddiyatlarini aks ettirardi.

Buyuk davlatlar qatorida jiddiy siljishlar ro‘y berdi. Bir tomondan, jahon darajasidagi buyuk davlat - Germaniyaning tor - mor etilishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, dunyoda etakchilik qilishga faol da‘vogar sifatida AQSH ning xalqaro maydonga chiqishi shunday siljishlarning eng sezilarlisi edi.

Buyuk Britaniya, Fransiya va YAponiya bilan bo‘lgan raqobatda g‘olib chiqish uchun AQSH umumjahon kreditori mavqeidan foydalanishga intildi.

Buyuk Britaniya urushdan so'ng buyuk davlat maqomini saqlab qoldi, garchand AQSH tomonidan ikkinchi o'ringa surib chiqarilayotgan bo'lsa xam. Germaniya endi uning dengizdagi va jahon bozorlaridagi raqibi emasdi. YAqin SHarqda Angliya Usmoniylar imperiyasi "merosining" talaygina qismini nazorat qilardi.

Fransiyaning mavqei xam etarlicha kuchli edi. Bosh vazir Klemanso deyarli ikki millionlik armiyaga tayanardi. Ushbu armiyani marshal Fosh demobilizatsiya qilishga shoshilmasdi. Fransiya xavfsizligini ta'minlash zaruriyatini pesh qilib, Klemanso diplomatiyasi Germaniyani revansh olish imkoniyatidan maxrum qilishni va Evropada Fransiyaning ustivorligini o'rnatishni ko'zlagandi.

Italiya, YAponiya va boshqa mamlakatlar xam o'z manfaatlariga ega edi. Garchand dastlabkilari "buyuk davlatlar" qatoriga kirgan bo'lsa xam, ularning ta'siri katta emasdi va faqatgina lokal masalalarni xal etishda sezilardi.

Urushdan keyingi xalqaro munosabatlarning tizimi asosan Parij tinchlik konferensiyasi (**18 yanvar 1919 y. - 28 iyun 1919 y.**) va Vashington konferensiyasi (**12 noyabr 1921 y. - 6 fevral 1922 y.**) qarorlariga suyanardi.

Parij konferensiyasining ishida 27 mamlakat vakillari ishtrok etdi. Konferensiya "oshkora diplomatiya" misoli deb e'lon kilinardi. Parijga mingdan ortiq delegatlar etib keldi. Fakat Germaniya va Sovet Rossiyasi vakillari yuq edi.

Konferensiyani tayyorlash va uning boshlanishi davrida AQSH prezidenti V. Vilssoning "14 bandi" xaqida ko'p gapirilardi.

"YAshirin diplomatiyadan" voz kechish va "adolatli tinchlik" ni o'rnatish to'g'risidagi bayonatlarga qaramay konferensiyaning asosiy qarorlari buyuk davlatlarning, birinchi galda Buyuk Britaniya, AQSH va Fransiyaning, oshkor etilmagan murosaga kelishlari natijasi sifatida namoyon buldi.

Xalqaro tashkilot xaqidagi masala muxokama birinchilar qatorida qilindi. Millatlar Ligasini barpo etish to'g'risidagi rezolyusiya qabul qilindi. SHunday tashkilotning zarurligi to'g'risidagi masala Birinchi jahon urushidan oldin xam qo'yilgandi. Urush davrida esa uning loyixalarini ishlab chiqish bilan turli guruxlar va xatto Angliya, AQSH va Fransiyada xukumat darajasidagi komissiyalar

shugʻullanardi. Millatlar Ligasini barpo etish loyixasini AQSH prezidenti Vudro Vilson xam oʻzi bilan birga Parijga olib keldi.

Parij konferensiyasi Millatlar Ligasining Nizomini tayyorlash maqsadida Vilson boshchiligida maxsus komissiyani tashkil etdi. Ushbu xujjat negizida inglizlar va amerikaliklarning qoʻshma loyixasi yotardi.

13 fevralga kelib Millatlar Ligasining Nizomi tayyor boʻldi va ertasi kuni Vilson tomonidan konferensiyaga taqdim etildi. Nizom 26 banddan iborat boʻlib, unda Liga aʼzolarining vazifalari va majburiyatlari, tashkilotning ishlash tamoyillari, tuzilishi belgilab berildi. Liganing bosh tashkilotlari umumiy yigʻin - Assambleya va Kengash edi. Qarorlar bir ovozdan qabul qilinardi.

Liga aʼzolari xalqaro munosabatlarni toʻla oshkoralikda tutib turish, xalqaro xuquq mezonlariga amal qilish, tashkilotga kirgan barcha aʼzolarning xududiy yaxlitligini va mavjud siyosiy mustaqilligini xurmat qilish va saqlash majburiyatlarini olishdi.

Mustamlakachilikni saqlab qolish koʻzda tutilgandi. Uni niqoblash maqsadida mandat tizimi barpo etildi.

Urushdan keyingi vaziyatni tartibga solishga oid koʻplab masalalar muxokama qilindi. Lekin baribir asosiy masala - Germaniyaning taqdiri masalasi edi. Ushbu mamlakat vakillari Parijga faqatgina tinchlik shartnomasini imzolash uchun chaqirtirildi.

1919 yilning 28 iyunida Versal saroyida Germaniya vakillari urushdan keyingi tinchlik tartiblarini oʻrnatishga doir asosiy xujjatni - tinchlik shartnomasini imzolashdi. Keyinchalik Germaniyaning ittifoqchilari - Bolgariya, Turkiya va Avstro- Vengriya tarqab ketganligi sababli, Avstriya va Vengriya bilan aloxida - aloxida tinchlik shartnomalari imzolandi. Xar bir shartnoma Millatlar Ligasining Nizomi bilan boshlanardi. Germaniya mustamlakalarini boʻlib olish (vasiylik nomi bilan maʼlum boʻlgan) “oʻzlarini oʻzi boshqarishga qodir emas” xalqlarga yordam berishga qaratilgan “sivilizatsiyaning muqaddas missiyasi” sifatida eʼlon qilinardi.

Umuman olganda, Versal shartnomasiga ko'ra, Germaniya xududining $\frac{1}{8}$ qismini va axolisining $\frac{1}{12}$ qismini yo'qotdi. Germaniya Polsha, CHexoslavakiya, Lyuksemburgning mustaqilligini tan oldi; Avstriyaning mustaqilligini "qat'iy xurmat" qilish majburiyatini xam oldi. Reyn daryosining chap soxili bo'ylab, 50 km ichkarisidagi Germaniyaning xududi xarbiysizlashtirildi.

Germaniya mustamlakalari Fransiya, YAponiya, Belgiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya va uning dominionlari o'rtasida bo'lib (mandatlar shaklida) olindi.

Versal shartnomasida Germaniyaning qurolsizlashtirilishi ko'zda tutilgandi. Bundan tashqari, Germaniya jahon urushining boshlanishi va u etkazgan ziyon uchun aybdor deb e'lon qilindi. SHu tariqa ittifoqchilar ko'rgan "barcha talafot va zararlar" ni qoplash yo'lida Germaniyada reparatsion to'lovlarni olish uchun xuquqiy asos yaratildi. Germaniyaning shartnomani to'la bajarishini ta'minlovchi kafolot sifatida ittifoqchi qo'shinlari tomonidan 5 yildan 15 yilgacha bo'lgan muddat davomida Reyn daryosidan g'arbda joylashgan xududlarni okkupatsiya qilinishi nazarda tutilgandi.

Birinchi jahon urushidan so'ng barpo etilgan tartibni odatda Versal - Vashington tizimi deb nomlashadi. Agar Versal shartnomasi asosan Evropa davlatlariga taaluqli bo'lsa, Vashington konferensiyasi esa Uzoq SHarq masalalarini xal etdi.

1921 yilning 12 noyabrda ochilgan Vashington konferensiyasiga to'qqizta mamlakat taklif etildi: AQSH, Buyuk Britaniya, YAponiya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Portugaliya va Xitoy. RSFSR va Uzoq SHarq respublikasi taklif etilmadilar. Biroq, Uzoq SHarq Respublikasining norasmiy delegatsiyasi Vashingtonga etib kelishga erishdi.

Konferensiya davomida bir nechta shartnomalar imzolandiki, ular kelgusida xalqaro munosabatlarning xolatiga jiddiy ta'sir etdi.

1921 yil 13 dekabrda AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va YAponiya vakillari, "To'rt davlat shartnomasini" imzolashdi. Ushbu bitim uni imzolagan davlatlarga Tinch Okeani xavzasi orollaridagi egaliklarini kafolatlab berdi. Angliya va YAponiya o'rtasida 1902 yilda tuzilgan ittifoq bekor qilindi. Umuman olganda

ushbu shartnoma buyuk davlatlarning Tinch okeanidagi mavqelariga barqarorlashtirish ta'sirini o'tkazdi.

1922 yil 6 fevralda AQSH, Buyuk Britaniya, YAponiya, Fransiya, Italiyaning "dengiz qurollarini cheklash to'g'risidagi" "Besh davlat shartnomasi" imzolandi. Ushbu davlatlar o'rtasida xarbiy dengiz kuchlarining aniq belgilangan nisbati o'rnatildi.

"Besh davlat shartnomasi" "qurolsizlanish" emasdi. Faqatgina AQSH foydasiga kuchlarning siljitishi ro'y berdi, xolos. Buyuk Britaniya sezilarli yon berishlariga rozi bo'ldi. Mamlakat "ikki buyuk davlat standarti" deb nomlanadigan an'anaviy tamoyildan voz kechishga majbur bo'ldi.

Vashington konferensiyasida aloxida e'tibor Xitoy, masalasiga qaratildi. Xitoy uning xududlari YAponiyaga berilgan german mustamlakalarini qaytarilishini talab qilib, Versal shartnomasini imzolamagandi. 1919 yildagi Versal talonchiligiga javoban "4 may xarakati" deb nom olgan milliy ozodlik xarakati boshlandi.

1922 yil fevralida konferensiyaning barcha qatnashchilari "To'qqiz davlat shartnomasi"ni imzolashdi. Ushbu bitim Xitoyning suvereniteti va xududiy yaxlitligi tamoyilini e'lon qildi. Lekin shu paytning o'zida "ochiq eshiklar" va "teng imkoniyatlar" tamoyillarining tan olinishi Xitoyni dunyoning buyuk davlatlariga nisbatan qaram qilib qo'yardi. Xitoy bilan tuzilgan tengsiz shartnomalar bekor qilinmadi; xitoyliklar bojxonasi ustidan xorijiy nazorat saqlanib qolindi. YAponiya qo'shinlarini Janubiy Manchjuriyadan olib chiqib ketish to'g'risidagi Xitoyning talabini rad etdi.

Vashington konferensiyasi davomida etakchi davlatlar o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar Uzoq SHarq respublikasining chet ellik bosqinchilardan ozod etilishini tezlashtirdi. 1922 yilda SHarqiy Sibir xududlari yapon qo'shinlaridan to'la ozod etildi.

YUqorida ta'kidlaganidek, urushdan keyingi tinchlikni tartibga solish davrida, Versal - Vashington tizimi nomi bilan tarixda ma'lum bo'lgan, shartnomalarning yaxlit majmui yaratildi. Agar Versal tizimi G'arbiy Evropaning urushdan keyingi masalalarini, xamda etakchi davlatlarning Afrika va YAqin SHarqdagi manfaatlarini

tartibga solgan bo'lsa, Vashington tizimi esa Uzoq SHarq va Tinch okeanidagi ziddiyatlarni xal etishga xarakat qildi. SHu ma'noda Vashington Versalning davomi uning geografik qo'shimchasi edi; xam birinchi, xam ikkinchi konferensiyada aslini olganda dunyoni qaytadan taqsimlab olinishi ro'y bermoqda edi.

SHartnomalarning Versal tizimi Evropada "qo'rxona" ni (urush chiqishi mumkin bo'lgan joy ma'nosida) barpo etdi, YAqin SHarqda esa to'xtovsiz ag'dar - to'ntarlar va milliy - ozodlik xarakatlari negizidagi portlashlarning o'chog'ini keltirib chiqardi.

SHartnomalarning Versal - Vashington tizimi bo'lib chuqur ziddiyatlar bilan belgilangan oqibatda barbod bo'ldi.

Sovet Rossiyasining xalqaro maydonga chiqishi urushdan keyingi tinchlik tartibini barpo etish davrida bo'lib o'tayotgandi. Ushbu davlatning asosiy tashqi siyosiy vazifasi - mamlakatning yangi xukumatini xalqaro tan olinishiga erishish edi. 1918 yilda boshlangan chet - el intervensiyasi 20 - chi yillarning dastlabkilariga kelib deyarli tugadi. Sovet Rossiyasi Estoniya, Latviya, Litva va Finlyandiya bilan tinchlik shartnomalarini imzoladi. 1920 yilning yanvarida Antanta Oliy Kengashining qaroriga ko'ra Rossiyaning iqtisodiy qamali bekor qilindi. Polsha bilan ro'y bergan xarbiy to'qnashuv 1921 yil 18 martda sulx tuzilishi bilan yakunlandi.

Dunyoning etakchi davlatlari bilan aloqalarini o'rnatishga olib boradigan eng amaliy yo'l - savdo edi. 1920 - 1921 yillarda SHO'rolar Rossiyasi bir qator iqtisodiy, siyosiy va savdo bitimlarini imzolashga erishdi. Eng muximlaridan biri xisoblangan Angliya va Sovet Rossiyasi o'rtasida imzolangan shartnomaning (mart 1921 y.) axamiyati savdo soxasi doirasidan kengroq edi. Ushbu shartnoma Sovet davlatini de - fakto (amalda) tan olinishini anglatardi. 1921 yil 6 may kuni Germaniya bilan vaqtinchalik bitim imzolandiki, unda Berlindagi sovet elchixonasi "Rossiyaning yagona qonuniy vakili" sifatida tan olinardi. Germaniya va Buyuk Britaniyadan so'ng savdo shartnomalari qator mamlakatlar bilan imzolandi.

Evropaning yirik davlati bilan Sovet Rossiyasining rasman (de - yure) o'zaro tan olish to'g'risidagi dastlabki shartnomasi Germaniya bilan **1922 yil 16 aprelda**

Rapalloda (Genuya yaqinida) **Genuya konferensiyasi** davomida (10 aprel - 19 may 1922 y.) imzolandi.

1924 yildan boshlab kelgusi yillarda SSSR G'arbning deyarli barcha davlatlari tomonidan tan olindi. SSSR xalqaro maydonda muxim rol o'ynay boshladi.

Ikkinchi jahon urushidan oldingi o'n yillik davlatlararo ziddiyatlarning jiddiy keskinlashuvi bilan tavsiflandi.

1929 - 1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi g'olib mamlakatlar o'rtasidagi, xamda ular va mag'lub mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuviga olib keldi.

Inqirozning oxiriga kelib Evropadagi kuchlar nisbatida o'zgarishlar ro'y berdi. Versal tizimining muxim qismlari bartaraf qilindi. Germaniyaning Reyn zonasi va o'zining iqtisodiyoti ustidan suvereniteti tiklandi. Fransiyaning G'arbiy Evropadagi mavqei zaiflashdi. SHu bilan bir qatorda AQSHning Evropa masalalarini xal etishdagi roli kuchaydi.

Ushbu yillarda buyuk davlatlar o'rtasidagi raqobat dengiz qurollari soxasida xam bo'lib o'tardi. 1930 yilning yanvar - aprelida Londonda dengiz qurollari masalasi bo'yicha xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda AQSH, Buyuk Britaniya, YAponiya, Fransiya va Italiya davlatlari qatnashdi. Konferensiyada Vashington konferensiyasining (1921 - 1922 yy.) qarorlari qayta ko'rib chiqildi. Aslida, AQSH, Buyuk Britaniya va YAponiya o'rtasida xarbiy - dengiz kuchlarining deyarli teng nisbati o'rnatilgan edi.

30 - yillar boshida Fransiya diplomatiyasi Germaniya bilan yaqinlashishiga urinib ko'rdi. Biroq bu urinish muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Germaniya Versal shartnomasini "bajarish siyosatini" yakunlab bo'lgandi va revansh olish siyosatini amalga oshirishga faol o'tayotgan edi.

1932 yil 2 fevralda qurolsizlanish masalalari bo'yicha Jenevada ochilgan xalqaro konferensiyada Germaniya barcha mamlakatlar uchun bir xil bo'lgan "xavfsizlik tizimi doirasidagi teng xuquqlik" ga erishdi. Bu - Germaniya xarbiy saloxiyatining tiklanishini xalqaro miqyosida tan olinganligini anlatardi.

Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida etakchi davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar Tinch okeani xavzasida va Uzoq SHarqda keskinlashdi.

1931 - 1932 yillarida YAponiya SHimoli - sharqiy Xitoyni (Manchjuriyani) bosib oldi. Yirik davlatlar va Millatlar Ligasi, aslini olganda, YAponiya tajovuziga qarshi xech qanday xarakatni amalga oshirishmadi. 1933 yilda YAponiya Millatlar Ligasini tark etdi. SHunday qilib, YAponiyaning Xitoydagi tajovuzi natijasida, Uzoq SHarqda xavfli xarbiy o'chog'i yuzaga keldi.

Germaniyada xokimiyat tepasiga Gitler boshchiligidagi natsional - sotsialistlar partiyasining kelishi xalqaro vaziyatni jiddiy tarzda murakkablashtirdi. YAponiyaning Uzoq SHarqdagi tajovuzi boshlanganidan so'ng bir yarim yildan kamroq vakt o'tishi bilanoq Evropa markazida xarbiy xatarning yangi o'chog'i paydo bo'ldi.

1933 yilning oktyabrida Germaniya Millatlar Ligasi tarkibidan chiqdi. 1935 yilning mart oyida Germaniyada umumiy xarbiy majburiyat joriy etildi. 1935 yilning iyunida imzolangan ingliz - german bitimi Germaniyaning dengizdagi qurollanishini qonunlashtirdi. Versal tizimini yo'q qilishga qaratilgan Germaniyaning siyosati etakchi davlatlarning chinakam qarshiligiga uchramadi.

Aksincha, AQSH va Angliyaning yirik monopoliyalari Germaniyaning xarbiy - iqtisodiy saloxiyatini tiklanishiga yordam berishdi.

Xarbiy - iqtisodiy saloxiyatining o'sishiga axolisi nemislardan iborat Saar sanoat viloyatining Germaniyaga qo'shilishi xam ko'maklashdi. Ushbu voqea 1935 yilning yanvarida o'tkazilgan plebissit natijasida ro'y berdi.

Etakchi davlatlarning "tinchlantirish" va "aralashmaslik" beparvo siyosati Germaniya, Italiya va YAponiyaning 1935 yildan boshlab to'g'ridan - to'g'ri ekspansiya siyosatiga o'tishiga olib keldi.

1936 yilning baxoriga kelib Italiya Efiopiyani bosib oldi. 1936 yil 7 mart kuni german qo'shinlari Reyn xarbiysizlashtirilgan zonaga kirib kelishdi. Ushbu xarakat Versal shartnomasini imzolagan buyuk davlatlarning bironta samarali qarashligiga uchramadi. Germaniya va Italiya Ispaniyadagi fuqarolar urushiga faol aralashishidi,

bu esa respublikaning qulashi va ushbu mamlakatda Franko boshchiligidagi fashistlar tartibotining o'rnatilishiga olib keldi.

1937 yilning iyulida YAponiyaning Xitoyga nisbatan ekspansiyaning yangi bosqichi boshlandi. YAponlar Pekin, Tyanszin va SHimoliy Xitoyning boshqa yirik markazlarini bosib olishdi. 1937 yilning avgustida yapon qo'shinlari Xitoyning eng yirik shaxri - SHanxayni egallashdi. Markaziy Xitoyni yapon armiyasi tomonidan zabt etilishi boshlandi.

Tajovuzkor davlatlarning pozitsiyalari o'zaro yaqinlashdi va bu xolat 1937 yilning noyabriga kelib "Berlin - Rim - Tokio uchburchagi" ning ("Komiternga qarshi axdnoma") tashkil etilishiga olib keldi.

Tajovuzkor davlatlar bloki rasmiylashtirilganidan so'ng fashistlar Germaniyasi tajovuzlarining yangi bosqichi xam boshlandi. 1938 yil 12 martda german qo'shinlari Avstriyaga bostirib kirishdi va mamlakatni egallashdi. Ertasi kuni Avstriyaning Germaniyaga yangi kansleri Zeyss - Inkvart Avstriyaning Germaniyaga qo'shilishi to'g'risida e'lon qildi. 1938 yil aprel boshida Angliya, Fransiya va AQSH o'zlarining Venadagi diplomatik missiyalarini tugatishdi va shu tariqa anshlyusni tan olishdi.

Fagistlar tajovuziga qarshilik qilish masalasi eng asosiy xalqaro masalalardan biri bo'lib qoldi. Biroq, o'sha davrning yirik davlatlari, shu jumladan SSSR xam, fashistlartajovuziga qarshi birgalikda xarakat qilishning yagona mexanizmlarini ishlab chiqishga qodir bo'lmadi. Etakchi davlatlar delegatsiyalarining ko'plab muzokaralari aniq natijalar bermadi. Ilgari imzolangan turli axdnomalar va bitimlar, aslini olganda, bajarilmasdi.

Ushbu xolat tajovuzkor davlatlarni keyingi ekspansiya qadamlarini qo'yishga turtkilardi.

Avstriya anshlyus qilinganidan so'ng Germaniya CHexoslavakiyani bosib olishga kirishdi. Gitler axolisining ko'pchiligini nemislar tashkil etgan Sudet viloyatini Germaniyaga topshirish talabini ilgari surdi. Etakchi g'arb davlatlari CHexoslavakiyaga xech qanday yordam berishmadi.

SSSR CHexoslavakiyaga German tajovuziga uchragan taqdirda yordam berishga tayyorgarligini bayon etdi. Lekin, CHexoslavakiya raxbariyati yordam

so‘rab SSSRga murojaat kilmadi. CHexoslavakiya xukumati Germaniyaning ultimativ talabiga rozi bo‘lish qarorini qabul qildi.

1938 yil 29 sentyabrida Myunxenda CHembrlen, Delade, Mussolini va Gitler bir necha soat ichida CHexoslavakiyaning taqdirini xal etishdi. CHexoslavakiya 10 kunlik muddatda Sudet viloyatini Germaniyaga berishi lozim edi. CHexoslavakiya o‘z xududlarining $\frac{1}{5}$ qismini va aholisini darli $\frac{1}{4}$ qismini yo‘qotdi. Ushbu mamlakat xukumati Myunxen bitimini qabul qilishi to‘g‘risida e‘lon qildi. 1938 yil Myunxen bitimi G‘arbning Germaniya bilan kuchayib borayotgan ziddiyatlarini yumshatishga qaratilgan urinishi edi. Ushbu davrga kelib Germaniya sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish xajmi jixatidan Angliya va Fransiyadan o‘zib ketgandi. Germaniya G‘arbiy Evropada ustivor xarbiy kuchga aylanmoqda edi.

1939 yil 15 mart kuni, Myunxen bitimini buzib, german qo‘shinlari CHexiya va Moraviyani egallashdi va ularni protektorat deb e‘lon qilishdi. Bundan uch kun avval Slovakiyadagi gitlerchilar agenturasi ushbu viloyatni mustaqil davlat sifatida e‘lon qilgandi. G‘arb mamlakatlari CHexoslavakiyani ximoya qilishga qaratilgan bironta qadam xam qo‘yishmadi. Ushbu mamlakatlar Gitler SHarqqa xarakatlanadi deb umid bog‘lashgandi.

SHu orada tajovuzkorlik xarakatlari birin - ketin davom etaverdi. 1939 yil 21 martda gitlerchilar Polshadan Dansig (Gdansk) shaxrini Germaniyaga berilishiga rozi bo‘lishini talab qilishdi. Ertasi kuni German qo‘shinlari Litvaga tegishli bo‘lgan Klaypeda (Memel) viloyatiga kirib kelishdi. Aprelda Italiya Albaniyaga bostirib kirdi va uni egalladi.

Angliya, Fransiya va AQSHda Germaniya, Italiya va YAponiyaning ekspansiyasi naqadar ular uchun xatarli ekanligini anglay boshlashdi.

1939 yil 22 martda Fransiyada va Angliya agar birontasi uchinchi davlat tomonidan xujumga uchrasa, o‘zaro yordam berish to‘g‘risidagi notalar bilan almashishdi.

Amerika xukumati esa 1939 yil yozidan xom -ashyo va xarbiy materiallar bilan yordam berishni boshladi.

1939 yilning iyulidanoq ingliz diplomatiyasi Germaniya vakillari bilan barcha munozarali masalalarni ta'sir doiralarini bo'lib olish negizida xalq etish to'g'risida yashirin muzokaralarini boshladi.

SSSR, Angliya va Fransiya o'rtasida 1939 yilning yozida Moskvada olib borilgan xarbiy muzokaralar esa aniq natijalar bermadi.

Evropada urush xar qanday kunda boshlanishi mumkin edi. Uzoq SHarqda Sovet armiyasi allaqachon yapon qo'shinlariga qarshi yirik to'qnashuvga tortilgandi.

1939 yilning may oyida YAponiya Mo'g'uliston Xalq Respublikasiga bostirib kirdi. Sovet qo'shinlari SSSR - MXR shartnomasiga muvofiq tarzda, Mo'g'uliston xalq armiyasi bilan birgalikda yapon qo'shinlariga qarshi xarbiy xarakatlar olib borishdi.

Angliya va Fransiya bilan muzokaralarning muvaffaqiyatsizligiga amin bo'lgan SSSR Germaniyaning xujum qilmaslik shartnomasini imzolash to'g'risidagi bir necha marotaba qilgan takliflarini qabul qildi. SHunday shartnoma 1939 yilning 23 avgustida imzolandi. SHartnomaga ko'ra Germaniya va SSSR SHarqiy Evropada o'z davlat manfaatlariga oid ta'sir doiralarini taqsimlash masalasida murosaga kelishdi.

Ushbu shartnomaga baxo berish masalasi tarixchilar orasida ko'plab baxslar va munozaralarini keltirib chiqarmoqda.

1939 yilning yoziga kelib Germaniya urushga tayyorgarlik ko'rishni yakunladi. Gitler Myunxen bitimi va CHexoslovakiyani bosib olish tajribasiga tayanib, Polsha ittifoqchilari - Buyuk Britaniya va Fransiya - yoki Germaniyaga umuman urush e'lon qilmaydi, yoki xar xolda Polshaga amaliy yordam bermaydi deb xisoblardi.

1939 yil 1 sentyabrda Germaniya Polshaga bostirib kirdi. 1939 yil 3 sentyabrda esa Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qilishdi. Ikkinchi jahon urushi boshlandi.

Italiya Germaniyaning "urushmayotgan ittifoqchisi" o'rnini egalladi. AQSH o'zining betarafligi to'g'risida e'lon qildi. Nemis qo'shinlarining son va texnik jixatdan kata ustunlikka ega bo'lganligi sababli polyaklar armiyasi dushmanga qarshi turishga qurbi etmasdi. 17 - 18 sentyabrda Polsha xukumati va xarbiy qo'mondonligi

Ruminiya xududlariga o'tib ketdi. 1939 yilning 28 sentyabriga kelib nemis qo'shinlari Varshavani egallashdi va oktyabr boshigacha polyaklar armiyasi qarshiligining oxiri o'chog'larini bostirishdi.

Xarbiy xarakatlar to'xtatildi. Polsha mag'lubiyatga uchradi. Fransiya va Angliya, Germaniyaga urush e'lon qilib, xech qanday xarbiy xarakatlar olib borishmadi. SHu tariqa, G'arbiy frontda "g'alati urush" ro'y bermoqda edi.

1939 yil 17 sentyabrda xujum qilmaslik to'g'risidagi sovet - German shartnomasining maxfiy qo'shimcha protokoliga ko'ra SSSR o'z qo'shinlarini G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiyaga kiritdi. Sovet qo'shinlari 1919 yildayoq Polshaning sharqiy chegarasi sifatida belgilangan "Kerzon chizig'ida" to'xtatildi. 1939 yil 28 sentyabrda SSSR va Germaniya o'rtasida imzolangan "Do'stlik va chegara to'g'risida" gi shartnomaga ko'ra German va sovet qo'shinlari o'rtasidagi demarkatsion chizig'i (chegarasi) San va G'arbiy Bug daryolari bo'ylab belgilandi.

Polsha erlari Germaniya okkupatsiyasi ostida qoldi. Ukraina va Belorussiya erlari esa SSSRga qo'shib olindi.

SSSR, Germaniya bilan tuzilgan "Do'stlik va chegara to'g'risida" gi shartnomaga tayanib, Boltiq bo'yi mamlakatlardan o'zaro yordam berish to'g'risidagi shartnomalarni imzolashni va o'z xududlarida sovet xarbiy bazalarini joylashtirishni talab qildi. 1939 yilning sentyabr - oktyabrida Estoniya, Latviya va Litva bunga roziligini berishga majbur bo'ldi. 1940 yil 14 - 16 iyunda Fransiyaning fashistlar Germaniyasi tomonidan faktik jixatdan tor - mor etilishidan so'ng, Stalin Boltiq bo'yining ushbu mamlakatlariga SSSR bilan tuzilgan shartnomalarni "xalollik bilan" bajarishga tayyor yangi xukumatlarni shakllantirish va ushbu davlatlar xududlariga sovet qo'shinlarini ("xavfsizlikni ta'minlash uchun") kiritish to'g'risidagi ultimatumni qo'ydi. Bir necha kundan so'ng Estoniya, Latviya va Litvada "xalq xukumatlari" tuzildiki, ular maxalliy kommunistlar yordamida Boltiq bo'yida Sovet xokimiyatini o'rnatishdi.

O'z navbatida Finlyandiyaga qarshi urush Qizil armiyaning nisbatan kuchsizligini ochib tashlashi SSSR uchun sovet - german to'qnashuvini iloji boricha keyinga surishga va Germaniya bilan yanada yaqinlashuviga kata turtqi bo'ldi Nemis

iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan neft, paxta, don, rangli metallarni katta ko'lamda etkazib berib, SSSR Germaniyaga qaratilgan savdo qamaliga putur etkazardi.

Uzoq davom etgan tanaffusdan so'ng 30 - chi yillarda xarbiy soxadagi sovet-german xamkorligi xam tiklandi. Sovet raxbariyati xatto Germaniyaga Murmansk soxilidagi xarbiy - dengiz bazasini taqdim etdi, biroq Norvegiyani bosib olgandan so'ng Gitler undan voz kechdi. Stalin va Molotovning rasmiy bayonotlarida fashistlar Germaniyasi sulxparvar qilib ko'rsatilardi, Angliya va Fransiya esa urush olovini yoquvchilari va uni davom ettirish tarafdorlari sifatida qattiq tanqid qilinardi. Fransiyaning tor - mor etilishi munosabati bilan Molotov Sovet xukumati nomidan gitlerchilar raxbariyatini tabrikladi. Qolaversa, Stalin SSSR xududlarida panox topgan 800 nemis va avstriyalik antifashistlarni Gitler qo'liga topshirdi. Germaniya "G'alati urushdan" foydalanib, faol xarbiy xarakatlarga tayyorlandi.

1940 yilning aprelida Daniya va Norvegiya okkupatsiya qilindi. 1940 yilning 10 maydan 22 iyunigacha Gollandiya, Belgiya va Fransiya bosib olindi. Italiya xam Angliya va Fransiya urush e'lon qildi. "Ochiq shaxar" deb e'lon qilingan Parij nemis qo'shinlariga jangsiz topshirildi. Fransiyaning o'zi ikki zonaga bo'lib tashlandi: okkupatsiya qilingan (mamlakatning shimoliy va markaziy qismlari) va okkupatsiya qilinmagan (mamlakatning janubiy qismi; bu erda marshal Peten tartiboti o'rnatildi.)

"Tinchlantirish" siyosatining to'la barbod bo'lganligi sababli Buyuk Britaniyada N.CHemberlen o'rniga xokimiyat tepasiga Uinston CHerchill boshchiligidagi koalitsion xukumat keldi va mamlakatni nemis qo'shinlaridan mudofaa qilishni tashkil etdi. Gitlarning yaxshiyona bomba yog'dirishi yo'li orqali Angliyani engish niyatlari barbod bo'ldi. Britaniya orollariga qo'shin tushirish rejasidan voz kechishga to'g'ri keldi.

1939 yilning o'zidayoq AQSHda betaraflik to'g'risidagi qonun qayta ko'rib chiqildi. Natijada urushayotgan mamlakatlar AQSHdan qurollar va xarbiy materiallar sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1941 yil 11 martda esa lend - liz to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Unga ko'ra mudofaasi AQSH uchun o'ta muxim bo'lgan

mamlakatlarga qurol - aslaxalar qarzga yoki ijaraga taqdim etilardi. Ushbu qonun Angliyaga AQSH ning ulkan yordamini olish imkonini berdi.

1940 yilning sentyabrida Germaniya, YAponiya va Italiya o'rtasida siyosiy va xarbiy - iqtisodiy ittifoq to'g'risidagi Uchlar axdnomasi imzolandi.

SHu paytning o'zida, xarbiy xarakatlar Afrikada va O'rta er dengizida xam olib borildi. Italyan qo'shinlarining shimoli - sharqiy Afrikada ingliz armiyasidan mag'lubiyati Germaniyani o'zining ekspeditsion qo'shinlarini Liviyaga tashlashga majbur qildi. Nemis qo'shinlari, italyan qo'shinlari bilan birgalikda britaniyaliklarni Misr chegarasi tomon chekinishiga majbur etdi.

1941 yilning mart oyiga kelib Germaniya Janubi - SHarqiy Evropa ustidan xam o'z nazoratini o'rnatdi. Ruminiya, Vengriya, YUgoslaviya va YUnoniston bosib olindi. Nemis qo'shinlari kiritilgan Bolgariya 1941 yilning martidayoq Uchlar axdnomasiga qo'shib olindi. SHunday qilib, SSSR ga bostirib kirish uchun qulay platsdarm yaratildi.

1941 yil 22 iyunda Germaniya, xujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomani buzib, urush e'lon qilmasdan, SSSR- ga xujum boshladi.

1918-1939 yillarda Angliya.

1918 yillarda Angliyada hukumat ustida liberallar partiyasining rahbari Lloyd Djorj boshchiligida liberallar konservatorlar va o'ng leyboristlardan iborat koalitsion hukumat tuzildi. Rossiya va boshqa davlatlarda bo'lib o'tgan inqiloblar Angliyaga ham o'zini ta'sirini kursatdi va ommaviy norozilik xarakatlarining o'sishini natijasida Loid Djorj hukumati ayrim yon berishlariga majbur bo'ldi. 1918 yil boshida parlament tomonidan yangi saylov qonuni qabul kilinib, saylov reformasi o'tkazildi: saylovchilar doirasi kengaytirildi, 21 yoshga kirgan erkaklarga, 30 yoshga kirgan ayollarga saylov huquqi berildi. Bu Angliya tarixida birinchi marta ayollarga saylov huquqi berilishi edi. 14 yoshgacha bo'lgan bolalarga majburiy ta'lim berish xaqida tartib joriy qilindi.

Birinchi jahon urishida Germaniyaning engilishi - dunyoda hukmron bo'lishi uchun kurashda Angliyaning eng kuchli va asosiy raqibining engilishi bo'ldi. Buning natijasida Germaniya mustamlakatlari xisobiga Angliyaning mustamlaka erlari kengaydi. Bu Afrikada Tanganika, bundan tashqari Fransiya bilan bo'lishib olish asosida Togo va Kommerunning katta qismi va Turkiya imperiyasi territoriyasidan Falastin, Transiordaniya va Iroq.

Angliya dominionlar ham Germaniya mustamlakalari hisobiga kengaydi Janubiy Afrika Ittifoqi Germaniya Janubi – G'arbiy Afrika hisobiga, Avstraliya YAngi Gvineyaning Germaniyaga qarashli qismiga YAngi Zelandiya Garbiy Samoa orollariga mandat huquqini oldi.

Lekin shunga qaramasdan Angliya urushdan avval bo'lgan jahon moliyaviy ustunligi yoqolgan edi.

Urushdan oldin ko'pgina mamlakatlarga moliya qarz berib turadigan Angliya urushdan keyin uzi AKSH dan 850 min funt sterlingdan ortiq qarz bo'lib qoldi, bu esa o'z o'zidan Angliyani ichki iqtisodiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatti, statistika ma'lumotiga karasak Angliyaning iqtisodiyoti turg'unlik holatiga o'ulib qolganini ko'ramiz.

Sanoat mahsulotining hajmi 1913 yildagiga nisbatan 1920 yilda 91%, 1921 yilda 62%, 1924 yilda 88%, 1928 yilda 93%, 1932 yilda 82%, 1934 yilda 96% tashkil qilgan.

SHuning o'zi ko'rsatib turibdi ki Angliya koloniyalari saqlab qolgan bo'lishiga qaramay urushdan avvalgi bo'lgan qudrati anchagina bo'shagani va boshqa davlatlar qatoriga tushib qolgan desak ham bo'ladi.

Urushdan sung ichki iqtisodiy axvol ichki siyosiy ahvolga ham o'z ta'sirini kursatgan.

1918 yil dekabridagi parlament saylovlarida leboriotik partiyasi g'alaba qozondi va liberallar o'rnini egallay boshladi. Konservatorlar esa oppazitsiya o'rnida qolishga majbur buldi, lekin aytib utish kerakki konservatorlar va leyboristlar partiyalarida idiologik tarafidan farq qilmasada lekin ichki va tashqi siyosatni oborishda ozgina farqi bor edi.

Parlament saylovlarida magʻlubiyatga uchragan konservatorlar ichki iqtisodiy va siyosiy muammolarini echishni koʻzlab, leyboristlar bilan birgalikda 1919 yil yanvar oyida leyboristlar boshligʻi Lloyd Djorj boshchiligida kaolitsion hukumat tuziladi. Bu hukumat 1922 yil kuzlarigacha boshqardi.

Bu hukumatda Kerzon tashqi ishlar ministri, xarbiy ministrligiga Uinston CHerchill tayinlandi.

1919 yildan – 1922 yilgacha boʻlgan hukumat ancha qiyinchilikga uchradi, sababi ichki va tashqi siyosatida muammolarni echishda ancha kelishmovchilik yaqqol koʻrinib turadi.

Masalan U.CHerchell (xarbiy vazir) Sovet Rossiyasiga qarshi intervensiya uyushtirishga sababchi boʻldi. (bu intervensiyada 14 davlat qatnashdi).

Ichki iqtisodiy muammolar Angliyada siyosiy muammolarga olib keldi. Bundan tashqari mustamlaka hududlarida milliy ozodlik xarakatlar avj oldi. 1919 yilda Xitoyda, 1919-1921yy. Irlandiyada, 1918-1922yy. Xindistonda, 1919-1922yy. Misrda va boshqa joylarda. Bu harakatlar mustamlakatchilik tizimining inqiroziga uchraganligidan dalolat beradi.

1919-1921 yillarda Irlandiyada boʻlib oʻtgan ozodlik harakati natijasida SHimoliy Irlandiya markazi Olster 6ta grafligi bilan Angliya tarkibida janubiy Irlandiya markazi Eyer shahri 26ti grafligi bilan ozod Irlandiya nomi bilan mustakillika ega boʻldi.

SHu yildan boshlab Anliyaning rasmiy nomi «Buyuk Britaniya va SHimoliy Irlandiya qushma qirolligi» deb nomlandi.

1923 yili parlament saylovlarida leyboristlar partiyasi gʻalaba qozonadi va 1924 yildan leyboristlar rahbari birinchi leyboristlar hukumatiga boshchilik qiladi. Lekin bu hukumat bir yil utmas istifoga chiqib ketadi. R.Magdonald bosh vazir sifatida 1929 yilda siyosatga qaytadi.

1929 yilga kelib jahon iqtisodiy inqirozi Angliya iqtisodiyotiga ham katta taʼsir kursatadi.

1937-1940 yillarda konservatorlar partiyasi rahbari N.CHemberlenning bosh vazir sifatidagi faoliyati.

1940-1945 yillarda bosh vazir lavozimida U.CHerchellning faoliyati.

Fransiya 1918-1939 yillarda.

Birinchi Jahon urushidan sung Fransiya Antanta harbiy bloki a'zosi sifatida g'alaba qozonadi, urushdan avvalgi qo'ygan maqsadlariga erishadi.

Germaniyani mag'lubiyatga uchratib, 1871 yilda quldan ketqizgan Elzas va Lotaringiya hududlarini qaytaradi, bundan tashqari Versal bitimiga asoslanib Germaniyaga tegishli bo'lgan Osiyo va Afrika hududlaridagi mustamlaka hududlarini Angliya bilan birgalikda bo'lib oladi.

Boshqa davlatlarga qaraganda Fransiya urushdan sung o'z sanoatini rivojlanishi boshqa davlatlarga qaraganda (Angliya, AQSH) ancha sekinlashadi, Saar ko'mir koni Fransiya iqtisodiyotiga og'ir vaziyatini oz muncha engillashtiradi, og'ir va xarbiy sanoat rivojlanadi.

Tashqiy siyosatda bosh vazir Kleymonso Fransiyaning jahonda etakchi davlat sifatida ushlab turishga harakat qiladi, AQSH va Angliya bilan birgalikda Sovet Rossiyasiga qarshi intervensiyada ishtirok etadi, bundan tashqari Turkiyaga qarshi intervensiyada ham faol ishtirok etadi.

1919 yili navbatdagi parlament saylovlar natijasida Puankare va Mileran boshchiligida «Milliy blok» g'alaba qozonadi.

1920-1921 yillarda Fransiya SHarqiy Evropada CHexoslavakiya, YUgoslaviya va Rumıniya bilan harbiy ittifoq tuzadi, tarixga bu Kichik Antanta deb nomlanadi.

1923 yili Fransiya harbiy kuchlari Germaniyaning Rur va Reyn hududlariga harbiy qo'shin kiritadi.

1924 yildan boshlab AQSH ning bir qator moliya banklaridan yirik investitsiyalar kiritiladi.

1924 yilda parlament saylovlarida Milliy blok mag'lubiyatga uchraydi. Hukumatga sotsialistik partiyalar keladi, lekin bu hukumat 1926 yilga kelib istifoga chiqadi.

1926 yili Puankare boshchiligida «Milliy birlik » hukumati tuziladi.

1929 yilda jahonda boshlangan milliy inqiroz Fransiya iqtisodiyatiga 1930 yilda ta'sir kursata boshlaydi.

1932 yili hukumatga sotsialistlar va radikal partiyasi hukumat tuzadi.

1936 yili xalq fronti saylovda g'alaba qozonib hukumatga keladi, hukumatni Leon Blyum boshqaradi.

1937 – 1938 yy. Radikallar va sotsialistlardan iborat SHoten boshchiligidagi hukumat.

1938 -1940yy. Radikallar partiyasining rahbari Dalode boshchiligidagi hukumat.

1940 – 1944 yy. Vishi hukumati.

1918-1933 yillarda Germaniyada Veymar Respublikasi. 1933-1945 yillarda fashistik Germaniya (Uchinchi Reyx).

1918-1919 yillarda Germaniyaning ayrim federal erlarida inqiloblar ro'y beradi (Bremen, Bavariya, Reyn viloyati, Rurr, Saksoniya va boshqalar).

1919 yili 19 yanvarda Veymar shahrida Millat ta'sis majlisiga saylovlar o'tkaziladi va shu yilning 6 fevralida o'z ishini boshlaydi, majlis tamonidan yangi konstitutsiya qabul qilinib tarixga Veymar konstitutsiyasi deb kiradi.

Veymar Respublikasi hukumati tomonidan Parij tinchlik bitimiga imzo quyiladi, bitimga muvofiq Germaniyaga 100 minglik armiyaga ruhsat beriladi, harbiy flot taqiqlanadi, Evropadagi ayrim hududlardan mahrum bo'ladi, Osiyo va Afrikadagi mustamlaka hududlari butunlay olib ko'yiladi.

Kyoln va Mayns shaharlari Antanta harbiy kuchlari tomonidan 15 yil muddati bilan okkupatsiya qilinadi.

Saar ko'mir koni 15 yil muddati bilan millatlar ittifoqi ihtiyoriga topshiriladi.

1924 yili AQSH moliya vazirligi tomonidan Germaniyaga «Daues» moliya dasturi amalga oshiriladi.

1929 yili AQSH moliya vazirligi tomonidan «YUng» moliya dasturi rejalashtiriladi, lekin iqtisodiy inqiroz tufayli amalga oshmaydi.

1929 yildan boshlab Germaniyada ichki siyosiy vaziyat keskinlashadi, 1924 yilda tashkil topgan fashistik (Germaniya milliy sotsialistik ishchilar partiyasi) partiya asta sekin hukumat uchun bo'lgan kurashda faol ishtirok boshlaydi.

1930 va 1932 yillardagi reystak saylovlarida fashistik partiya 6,4 mln. va 13,7 mln. ovozga ega bo'ladi, bu partiyaning asosiy raqiblari Germaniya sotsial demokratlar partiyasi va Germaniya kommunistik partiyalari bo'lib, o'zaro kelishmaganligi tufayli 1932 yildagi saysovlar natijasida hukumatni fashistik partiyasining rahbari A.Gitler egallaydi.

1933 yili boshida Germaniya kommunistik partiyasi va undan sung Germaniya sotsial-demokratlar partiyasi ta'qiqlanadi, butun Germaniyada yagona fashistik partiya hukumronlik qiladi.

A.Gitler boshchiligidagi hukumat Versal «Parij» tinchlik bitimini qayta ko'rib chiqish talabi bilan chiqib Ikkinchi jahon urushi o'chog'ini yoqadi.

Italiya 1918-1932 yillarda.

Birinchi Jahon urushidan Italiya Antanta ittifoqchilar qatori g'alaba qozonib chiqdi.

1918 yili oktyabr oyida parchalanib ketayotgan Avstra-Vengriyaga zarba berib mag'lubiyatga uchratdi.

Italiyani Birinchi Jahon urushida ishtirok etish maqsadi Balkon yarimorolida o'z hududini va mavqeini oshirish edi, lekin Parij tinchlik konferensiyasida Italiyaning talablari to'lik qondirilmadi.

Italiya faqatgina janubiy Tirol va Triest portiga ega bo'ldi, Albaniya va Bolkon yarimorol hududi hisobiga o'z hududini kengaytirishga Angliya va Fransiya yo'l qo'ymadi. Natijada «Italiya g'alaba qozonganlar orasida mag'lubiyatga uchradi».

1919 yili Italiyaning ichki siyosiy kurashida xalq partiyasi tashkil topadi va shu yilning o'zida o'tkazilgan saylovlarida Italiya sotsialitlar bilan birgalikda hukumatni qo'lga kiritadi.

Urushda qozongan «maglubiyatli-galaba» butun mamlakatda shovenistik g'oyalarni vujudga keltiradi, ular orasida «fashistik» g'oyalar ham paydo bo'ladi.

Italiya g'arbiy Evropa mamlakatlar orasida sanoat rivojlanish ko'rsatgichlari past darajada bo'lib agrar-sanoat davlatlar tarkibida edi, shu sababli eksportda asosan agrar mahsulotlar bo'lib, importda asosan sanoat mollari ustun bo'lgan.

1921 yili «fashistlar» partiyasi «millat», «millat manfaati», «millat buyukligi» shiyorlar bilan targ'ibot ishlarini ommoviyalashtirib yuborishdi va qisqa vaqt ichida o'z natijasini berib boshladi.

Partiya rahbari B.Musalini avval parlament deputati sung 1922 yilning ohiridan boshlab hukumat rahbari deb tainlandi va asta sekin yakka hukumronlikka erishadi.

Amerika Kushma Shtatlari 1918-1939 yillarda.

AQSH Birinchi Jahon urush yillarining boshlari betaraflik siyosatini olib bordi, lekin 1917 yil aprelida jahon urushiga kardiva fanat 1918 yil yozidan boshlab harakatlarida aktiv ishtirok etdi va natijada 300 ming fuqarosidan mahrum bo'ldi.

Urush yillarida AQSHning og'ir sanoati va harbiy sanoati tez rivojlandi, buning sababi «betaraflik» siyosati orqali urushda ishtirok etyotgan davlatlarga og'ir va harbiy sanoat mahsulotlarini etkazib berish orqali eksport ko'rsatgichlari bir necha bor oshib ketadi.

Tosh ko'mir qazib olish jahon bo'yicha 43%, po'lat eritish 52%, neft mahsulotlarini ishlab chiqarish 70% tashkil etadi.

Savdo flotining yuk tashishi 10 marotaba oshadi.

Birinchi Jahon urushi natijalariga ko'ra AQSHdan boshqa mamlakatlarning qarzi 6,5 mlr. doll. etadi, jahondagi oltin zahiralarining 50% AQSH banklarida saqlanadi.

AQSH prezidenti V.Vilson Parij tinchlik konferensiyasida ishtirok etib Millatlar ligasining asoschilaridan biri bo'lib, AQSH nomidan bu xalqaro tashkilotga a'zo bo'lishga imzo chekadi lekin AQSH kongressi bu imzosini tasdiqlamaydi va kongress tomonidan V.Vilsonning tashqi siyosati tanqitga uchraydi.

1921yili 12 noyabrda 1922 yil 6 fevral oyigacha Vashington konferensiyasi bo'lib o'tadi. Unda 9 davlat ishtirok etadi (AQSH, Angliya, YAponiya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Portugaliya va Xitoy).

Bu konferensiyada bir qator bitimlar imzolaniib ular orasida eng muximi turt davlat bitimi (AQSH, Angliya, YAponiya va Fransiya), besh davlat bitimi (AQSH, Angliya, Fransiya, YAponiya va Italiya), va boshqalar. Natijada xalqaro munosabatlarda **Versal-Vashington tizimi** hukum suradi.

1920 yilda AQSH prezident saylovlarida respublikachilardan U.Garding saylanadi va o'z faoliyatida «Vilsonizm» siyosatini davom ettiradi.

1924-1929 yillarda AQSH prezidenti etib K.Kulidj saylanadi. Uning davri AQSH tarixida oltin davr deb nom oladi. K.Kuledj «Amerika ishi tadbirkorlik» shiyori ostida faoliyat ko'rsatadi.

Tashqi siyosatda «Monro doktrinasi» yoki «uzun tayok» siyosatiga amal qiladi.

1929 yili navbatdagi prezident saylovlari bo'lib bu saylovlarda respublikachilar partiyasidan bo'lgan Guver g'alaba qozonadi.

AQSH tarixida Guver davri qora yillar deb nom oladi. CHunki 1929 yilda boshlangan inqiroz Amerika Qushma SHtatlaridan boshlanib eng rivojlangan davlatni iqtisodiy barbotga uchratadi.

Bu iqtisodiy inqiroz AQSH tarixida **Buyuk tushkunlik** davri deb nom oladi, 1929 – 1932 yillarda 130ming kompaniyalar bankrotga uchraydi, 1933 yilga kelib ishsizlar soni 17 mln. etadi, oylik maoshi 40% qisqartiriladi.

1932 yildagi prezident saylovlarida demokratlar partiyasidan qo'yilgan nomzod F.Ruzvelt g'alaba qozonadi va AQSH tarixida turt marta prezidentlik saylovlarida muddati uzaytiriladi.(1932-1945).

Prezidentlik faoliyatida F.Ruzvelt «YAngi yul» iqtisodiy dasturini amalga oshiradi. Bu dasturda AQSH iqtisodiyotini tushkunlikdan olib chiqish muhum o'rin

egallaydi. Buning uchun iqtisodiyotning turli tarmoqlarida (ogʻir sanoat, engil sanoat, agrar sanoat, transport, moliya) alohida qoʻshimcha dasturlar va rejalar qabul qilinadi.

Ishsizlar masalasi buyicha ham bir qator tadbirlar oʻtkaziladi (harbiy-mehnat lagerlari).

Ichki ijtimoiy masalalar boʻyicha F.Ruzvelt neoliberalizm gʻoyalarini amalga oshirishga xarakat qiladi.

F.Ruzveltning «Yangi yul» iqtisodiy dasturi AQSHni asta sekin iqtisodiy tushkunlikdan olib chiqadi.

F.Ruzvelt tashqi siyosatda Evropada Germaniyaga qarshi, uzoq SHarqda Yaponiyaning agresiv siyosatiga qarshi chiqib Buyuk Britaniya va Sovet Ittifoqi bilan yaqinlashuv siyosatini amalga oshiradi.

Evropada Fashistik mafkurani paydo bulishi.

Birinchi jahon urushidan keyin dunyo muvozanatini ushlab turish maqsadida Versal – Vashington tartibi yaratildi. Versal – Vashington tartibining yaratilishi Evropa mamlakatlarining asosiy muammolarini hal etmadi. Aksincha, eski muammolar yoniga yangilari qoʻshildi va ular birinchi jahon urushidan keyingi dunyoning tarixiy taraqqiyotiga katta taʼsir koʻrsatdi. Ayrim mamlakatlarda ular koʻp jihatdan yangi siyosiy vaziyatning yuzaga kelishiga sabab boʻldi, yangi gʻoyalar, yangi siyosat va davlat arboblarning, hokimiyatni qoʻlga kiritishga intilayotgan yangi siyosiy tashkilotlarning paydo boʻlishiga turtki berdi.

Bu vaziyat dunyo siyosat maydonida yangi kuchning vujudga kelishda muhim omil boʻlib xizmat qildi. Ushbu siyosiy kuch baʼzi mamlakatlarda muhim ahamiyat kasb etib, hokimiyatni kiritdi, baʼzi mamlakatlarda har xil tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi tashkilot va guruhlariga aylandi, baʼzi mamlakatlarda esa katta oʻrin egallay olmadi. U turli davlatlarda turlicha koʻrinishga ega boʻlganligi va har xil nomlanganligigiga qaramasdan umumiy nom bilan fashizm deb ataldi.

Dastlabki fashistik tashkilotga Italiyada asos solindi. 1919 yil 23 martida Benito Mussolini Milan shahrida urush faxriylari birlashmasi – “Fascio di combattimento” ni tashkil qildi. 1921 yilda bu tashkilot “Partito Nazionale Fascista” nomi ostida siyosiy partiyaga aylantirildi. Benito Mussolini boshchiligidagi bu fashistlar partiyasi Italiyadagi mavjud siyosiy vaziyatdan foydalanib hokimiyatni qo‘lga kiritish uchun harakat qildi. 1922 yil 29 oktyabrda fashistlar “Rimga yurish” orqali hokimiyatni qo‘lga kiritdi. SHu tariqa Evropadagi dastlabki fashistik davlat qaror topdi.

Fashizmning ashadiy ko‘rinishlaridan biri Germaniyada qaror topgan natsional – sotsializm edi. Germaniyada fashistlar partiyasiga 1919 yil 5 yanvarda Myunxenda asos solindi. Dastlab Germaniya ishchi partiyasi deb atalgan bu partiya 1920 yil fevral oyidan natsional – sotsialistik nemis ishchi partiyasi deb yuritila boshlandi. SHu yildan natsional – sotsialistlarga Adolf Gitler etakchilik qila boshladi. 1923 yil 9 noyabrda Adolf Gitler boshchiligidagi natsional – sotsialistlar hokimiyatni qo‘lga kiritish uchun Myunxenda qo‘zg‘olon ko‘tarishdi. Lekin bu harakat muvaffaqiyat keltirmadi. Gitler va uning tarafdorlari qamoqqa solindi.

Evropadagi davlatlardan yana biri Portugaliyada ham fashistik hokimiyat qaror topdi. 1926 yil may oyida Portugaliyada davlat to‘ntarishi bo‘lib, hokimiyatni harbiylar egalladi. 1926 yil 30 iyundan moliya vaziri lavozimini egallagan Antonio Oliveyra Salazar harbiy diktatura asosidagi moliyaviy diktaturani o‘rnatishni boshladi. Keyinchalik A.Salazar hokimiyatning boshqa o‘rinlarini ham egallab portugal fashizmining etakchisiga aylandi.

Fashizm SHarqiy Evropa mamlakatlarida ham o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘ldi. SHarqiy Evropa mamlakatlarida bir – biridan farqli ravishda fashizm keng tarqala boshladi.

Fashizmning SHarqiy Evropa davlatlarida rivojlanishi va tarqalishini o‘rganishdan avval fashizm to‘g‘risidagi ba’zi nazariy masalalarga to‘xtalib o‘tish kerak bo‘ladi. Dastlab fashizm so‘zining ma’nosi, uning paydo bo‘lishi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish lozim. Xo‘sh, fashizm so‘zi qanday ma’noni anglatadi? Fashizm shunday nom olganki, bu harakatni umumiy mohiyati va maqsadi haqida o‘z –

o‘zidan hech narsani anglatmaydi. “Fascio” “birlashma” yoki “ittifoq” ma’nosini anglatadi, demak, fashistlar – “ittifoqchilar”, fashizm esa “ittifoqchilik” ma’nosini bildiradi. Konservatizm, liberalizm, sotsializm, kommunizm va boshqa tushunchalardan farqli ravishda “fashizm” tushunchasi ma’nodan holidir.

Italyan so‘zi bo‘lgan *fascio* – birlashma, lotincha *fascis* dan paydo bo‘lib, Rim liktorlari oldidagi xivchinlar bog‘lamasi so‘zidan olingan. XIX asrda bu so‘zdan o‘zlarini partiyadan farqlash uchun respublikachilar, kasaba uyushmalari va ijtimoiy guruhlar foydalangan. SHundan keyin XX asr boshida italyan o‘nglari bu nom bilan o‘zlarini ataganlar. 1917 yildan boshlab italyan parlamentini o‘ng qanoti “fascio per la difesa nazionale” nomi ostida birlashdi. 1915 yilda tashkil qilingan “fascio d’azieze revoluzionari” va B. Mussolini asos solgan “Fascio di combattimento” shu so‘zga asoslangan. SHundan so‘ng 1921 yildan “Partito Nazionale Fascista” nomini olgan fashistlar partiyasi paydo bo‘ldi. Germaniyadagi natsional – sotsializm va ularga yaqin hukmronlik shakllariga umumiy fashizm tushunchasi qo‘llanila boshladi.

Fashizm so‘zi “ittifoqchilik” ma’nosini anglatar ekan, uning mohiyati qanday? Bu masala yuzasidan bir tomondan marksistik tarixchilar, boshqa tomondan g‘arb olimlari o‘ziga xos fikr yuritishgan. Fashizmning ma’nosi ular o‘rtasida muammoli masala bo‘lib keldi.

V. Lenin 1922 yil noyabr oyidayoq italyan fashistlarini CHor Rossiyasi vaqtidagi qora yuzchilar bandasi bilan qarama – qarshi qo‘yadi. O‘sha bir vaqtning o‘zidayoq sotsialistik va kommunistik mualliflar “fashistlar” bu inqilobga qarshi harakatlar va tartiblar birlashmasi deyishdi. Kommunistlar munozarasida bu umumiyashtirish hech qanaqa shubha uyg‘otmadi. 1924 yilda kominternning V butun dunyo kongressida fashizmni oddiy “burjuaziyani proletariatga qarshi quroli” degan yo‘nalish deb qaraldi. Tezda hamma partiya va tizimlarni, kapitalizmga foydali, kommunizmga zararli narsalarni fashistlar deb hisobladilar. Fashizm tushunchasi shunga olib keldiki, sotsial – demokratik partiyalar ham fashizmga o‘xshashlar yoki “mo‘‘tadil qanot” sifatida qaraldi, chunki sotsial – demokratlar parlament demokratiyasini yoqlardi va shu bilan kapitalistik tizimni mustahkamlardi.

Kommunistik mualliflar fashistik harakatlar o'rtasidagi farq va o'xshashlik ustida kam mashg'ul bo'lsalar, g'arb olimlari 1928 yildayoq "Xalqaro fashizm" to'g'risida kitob chiqardilar. Ayniqsa bu muammolar bilan sotsial – demokratik nazariyachilar qiziqib qoldilar. Ammo ularni qimmatli intilishlari va ishlab chiqqan rejalari unutildi. Ular Evropadagi har xil fashistik harakatlarning umumiy sabablari va xususiyatlarini tekshirdi. Bu bilan shunday xulosaga kelindiki, "fashizmning ildizini, o'ziga xos belgilarini alohida milliy rivojlanish" deb bo'lmaydi.

Fashizmning yuqori rivojlangan kapitalizmga bog'lash mumkin emas. Fashistik harakatlar kelib chiqqan va rivojlangan davlatlarda iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar bilan farq qiladi. Siyosat sohasida ularni o'xshashliklari ko'rinadi. Fashizm to'g'risidagi bu fikrlar 1931 yilda nashr qilingan "Proletariatni zamonaviy ko'rinishlari" kitobida rivojlantirildi. Ammo 1945 yildan keyin fashizmni isloh qilishlar birmuncha unutildi.

Keyinchalik Ernst Nolte fanni fashizmning muammolarini alohida tarixiy xodisa deb qarashga undadi. Noltening qarashlari qattiq tanqidga uchradi. 60 – 70 yillarda ko'plab nashr qilingan tarixiy monografiyalarda fashizmning turli xil shakllari solishtirishdan kelib chiqmaydi deb yozishdi. Fashizm to'g'risida g'arb olimlari bir qator fikrlarni bildirishdi. Karl Dietrich Braxer yagona parlamentar demokratiya va siyosiy ozodlik uchun qat'iy o'z fikrini bildirdi. Bu bilan u ayniqsa siyosiy tomondan, shu bilan birga ilmiy tomondan totalitarizm tushunchasini, kommunistik va fashistik partiyani va ularning usulini o'xshash deb, parlament demokratiyasiga qarshi qo'yadi.

Italiyalik tadqiqotchi Renzo de Felice italyan fashizmi nemis natsional – sotsializmiga nisbatan u qadar ko'p qurbonlik keltirmaganini ta'kidladi. Genri A. Turner bo'lsa fashizm va kapitalizm chambarchas bog'liq degan marksistcha fikrga qarshi chiqdi. A. Jeyms Gregor hamma nodemokratik harakatlar va tartiblarni fashizm deb atash mumkin degan tushunchani tarqatdi. Lekin bu fikrlarning hammasiga ham qo'shib bo'lmaydi. Masalan, Braxerning kommunizm va fashizmning o'xshashligi to'g'risidagi fikrga qo'shilish mumkin emas.

Fashistik va kommunistik harakatlar va o'rtasidagi farq shundaki, ba'zi turli xil fashizmlarga qarshi qaraganda kommunistik va fashistik partiyalar har xil maqsadni ko'zlab, har xil umumiy jamoalar tizimini hosil qildi. Davlatni o'xshashlik tajribalari fashizm bilan kommunizmni tenglash uchun etarli emas.

Umuman olganda fashizm kuch ishlatish va zo'ravonlik xususiyatlariga ega bo'lib, ba'zi millatlarni kamsitish g'oyasi mavjud edi. SHunga qaramasdan fashistlar tartibotini qo'llab – quvvatladi. CHunki o'sha davrda vaziyat boshqacha edi. Iqtisodiy va siyosiy hayotda tartibsizlik hukmronlik qilardi. Germaniya va Italiyada demokratik xukumatlar kuchsiz edi. Tartib o'rnatishga zarurat tug'ildi. Kuchli va qat'iy rahbarlar hamma muammolarni hal qilishi kerak edi. Xuddi shu tarzda umumiy inqiroz holatiga barham berish kerak edi.

Birinchi jahon urushidan keyingi bu holat Germaniya va Italiyada hududiy da'volar bilan bilan qo'shilib ketgan millish tiklanish talablarini olg'a surishga olib keldi. Angliya va Fransiya mustamlakalar bilan ta'minlangan edi. Endi urushdan keyin kamsitilgan mamlakatlar navbati keldi. Ashaddiy millatchilik, samaralilik va avtoritar ko'pchilik nazaridan boshi berk ko'chadan chiqish yo'li bo'lib ko'rindi. Boshida fashistlar milliy o'zini hurmat qilish tuyg'usini qayta tiklash va muayyan farovonlikka muvaffaq bo'lindi. Fashist hokimiyati Italiyada bir necha umumdavlat yig'ilishlar o'tkazdi. Bu esa o'z o'rnida bug'doy etishtirishni amalga oshirdi va foydali qishloq xo'jalik maydonlarini kengaytirishga olib keldi.

Qurilish ishlari amalga oshirildi. Bularning hammasi mehnatkashlarni ish bilan band qilar va ularga qadimiy Rim an'analari xissini singdirar edi. Fashizm hokimiyatga kelgach Germaniyada ham sanoat sohasida o'sish ro'y berdi. Tartib o'rnatildi, biroq uni o'rnatishda qat'iy, ko'pincha qonli usullardan foydalanildi. Konslagerlarda ko'plab odamlar qirib tashlandi.

SHuningdek, fashizmni davlat tepasiga kelishida mamlakat ichidagi yirik monopoliyalar ham yordam berdi. Kapitalistik davlatlar unga to'sqinlik qilmadi. Fashizmni keng tarqalishiga yo'l qo'yib berdi. Dalillar shuni ko'rsatadiki, fashist partiyalari kapitalizm asosida paydo bo'lib, ma'lum kapitalistik jamoalarni o'ziga

tortdiki, kapitalistik tuzumlar siyosiy va iqtisodiy jihatdan yordam qo‘lini cho‘zishi kerak bo‘ldi.

SHuning uchun tarixchi tarixdan kerakli saboqni olmog‘i, natija va tekshirishlar ilmiy faraziga quloq solmog‘i, shuningdek, nazariy tekshirishlarga ahamiyat bermog‘i kerak. Nazariya va ilmiy farazlar yillar davomida fashizm ustida munozara olib borsa ham, ba’zi bir tuzilish asoslari, voqealarni yo‘nalishini ko‘rsatadi, xalqqa bu erdan hosil bo‘ladigan muammolarni ochib beradi.

Fashizm tushunchasini shunday yashirib bo‘lmaydi. U o‘z tarixiga ega bo‘lib, tarixga o‘z muhrini qo‘ydi. U XX asr tarixidagi asosiy so‘zlarga kiradi. Fashizm tarixi, fashizm nazariyasi antifashizm tarixiga olib keladi. YA’ni kommunistlar, sotsial-demokratlar tarixi, qisman konservativ va liberal partiyalar tarixiga olib keladi. Fashizm nazariyasi tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, oldin va hozirgi kunda hammadan ham fashizm tarixida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Fashizmga turlicha qarash mumkin. Kommunistlar, konservativ va liberallar, shuningdek, fashistlarning o‘zlari fashizmni o‘ziga xos tarzda baholashadi. Lekin umumiy fashizmni o‘rganish uchun avval alohida fashizmlarning tarixini bilish kerak bo‘ladi.

Sharqiy Evropa davlatlarida Fashistik goyalarning vujudka kelishi.

Vengriya.

SHarqiy Evropa mamlakatlari ichida birinchi bo‘lib fashistik hokimiyat qaror topgan davlat Vengriya bo‘ldi. Vengriya birinchi jahon urushida mag‘lubiyatga uchragan davlatlar qatorida edi. 1918 yil 16 noyabrda Avstriya-Vengriya taslim bo‘lgandan 10 kun keyin Vengriyada respublika e‘lon qilindi. Biroq Rossiyadan qaytgan sobiq harbiy askarlar Bela Kun boshchiligida hokimiyatni o‘z qo‘llariga olishga qaror qilishdi. 1919 yil 21 martda Vengriya sovet respublikasi tuzilganligi e‘lon qilindi. Lekin bu hukumat uzoq yashamadi va atigi 133 kun hukm surdi. 1919

yil 1 avgustda sotsial-demokratlar tazyiqi ostida kommunistlar hukumatdan chiqishdi. 4 avgustda rumin qo'shinlari tomonidan Budapesht ishg'ol qilindi. 6 avgustda Ishtvan Fridrix boshchiligida hukumat tuzildi. Ersgersog Yojef Gabeburg regent deb e'lon qilindi.

Lekin Antanta davlatlari Vengriyada o'zlariga sodiq va hamkorlik qiluvchi hokimiyatni o'rnatilishini xohlashardi. Bu vazifani bajarish Miklosh Xorti zimmasiga tushdi. M.Xorti tezda armiya tuzdi. 1919 yil noyabr oyining o'rtalarida uning armiyasi 25 mingta askardan iborat bo'lib, yil oxiriga borib 2 marta ko'paydi.

1919 yil 16 noyabrda Xorti qo'shinlari Budapeshtga kirdi. Oradan bir hafta o'tib, 23 noyabrda K. Xusar(Gusar) boshchiigida yangi hukumat tuzildi. Butun harbiy hokimiyat M. Xorti qo'liga o'tdi. Ko'pchilik siyosiy kuchlar Vengriyada monarxiyani qayta tiklash tarafdori edi. Lekin M. Xorti buni istamasdi. Lekin u qirol ham bo'lolmasdi. SHuning uchun u yangi regent lavozimini ishlab chiqdi. 1920 yil 1 martda parlament M.Xortini regent lavozimiga sayladi. Advokat Jandor SHimon – Jemadam etakchiligida yangi hukumat shakllantirildi. Yangi hukumat 1920 yil 15 martdan o'z faoliyatini boshladi. Mamlakatda endilikda yangi, burjua – pomeschchik diktaturasi o'rnatilib, so'l kuchlarga qarshi ommaviy terror boshlandi. Minglab venger vatanparvarlari turmalarga tashlandi, otildi va azoblarga solindi. M. Xorti Vengriyaning diktatoriga aylandi. Uning hukmronligi davrida Vengriyada asta – sekin fashistcha tartib qaror topa boshladi. Xorti eski sulolani hokimiyatga qaytarmoqchi bo'lganlarga ham qarshi kurashdi va bu sulola vakillarini o'z yo'lidan olib tashladi.

1921 yil apreliga qadar Vengriyani bir qancha hukumatlar boshqardi. 1921 yil 14 aprelda graf Ishtvan Betlen hukumat boshqaruvini o'z qo'liga oldi va parlament shaklidagi boshqaruvni ijro etdi. Betlen hukumati M.Xorti hokimiyatini mustahkamladi. Uning hukumati avvalgi hukumatlar siyosiy yo'nalishidan farq qilardi. Ammo amalda Vengriyadagi fashistik diktaturani mustahkamlardi. Uning siysatni o'zgartirishiga mamlakatning ichidagi holat va tashqi vaziyat asosiy sabab bo'ldi. Oldingi hukumatlarning terror siyosati, inqilobchilarga qarshiliklari va g'arb davlatlariga xayrihohliklari xalqqa yomon ko'rinishni olib keldi. 1919 yil avgustdan

1921 yil apreliga qadar olib borilgan hududdagi boshqaruv tizimi venger zodagonlari va g'arb davlatlarining noroziligiga sabab bo'ldi.

Bu hukumatlar davrida tashqi siyosatda ham yon berishlarga majbur bo'lindi. Vengriya urushda mag'lub davlat sifatida Versal tizimiga qo'shildi. 1920 yil 4 iyunda Versal saroyining Trianon zalida Vengriya bilan shartnoma imzolandi. Bu Trianon tinchlik shartnomasi deb ataldi. Unga ko'ra Vengriya 35 mingdan ortiq askarga ega bo'lmasligi lozim edi. SHuningdek aviatsiya, tank va og'ir artilleriya qo'shinlari ham ta'qiqlandi. Ayni paytda tovon to'lash ham ko'zda tutilgandi. SHartnomaga ko'ra Vengriyaning yangi chegaralari ham belgilandi. Xorvatiya, Bachka va Banatning g'arbiy qismi – YUgoslaviyaga, Transilvaniya va Banatning sharqiy qismi – Ruminiyaga, Slovakiya va Karpatori Ukrainasi – CHexoslovakiyaga, Burgenland – Avstriyaga berildi.

1920 yil 13 noyabrda Trianon tinchlik shartnomasi ratifikatsiya qilindi. Bu Vengriya uchun katta yo'qotish edi. CHunki M. Xortining asosiy rejalaridan biri buyuk Vengriyani qayta tiklash edi.

Ichki va tashqi siyosatda o'zgartirish zarur bo'lib qoldi. Vengriya rasman qirollik bo'lsa ham burjuaziyaning asosiy qismi ilgari sulola boshqaruvini xohlamas edi. Bu g'arb davlatlari manfaatlariga ham to'g'ri kelmasdi. 1919 yilning qaytarilishidan qo'rqqan yuqori sinflar diktatorlik tizimini biroz yumshatish va siyosatni liberallashtirish hisobiga o'z martabalarini saqlab qolmoqchi edilar.

Betlen hukumati 1920 yilda boshlangan agrar islohotni davom ettirdi. Bu islohot dehqonlar manfaatlarini betaraflashtirar va hukumatni qishloqqa ta'sirini kuchaytirardi. Unga ko'ra taqsimlanish kerak bo'lgan erlarning ko'proq qismi Xortistcha tartib tarafdorlari, hukumat namoyandalari va amaldorlar qo'liga o'tdi. Kichik qismi(mayda er bo'laklari yoki hovli tomorqalari) dehqonlarga berildi. Bu esa fashistik siyosatni mustahkamladi.

Sotsial – demokratlarning islohotchi etakchilari I. Betlen bilan sharmandalarcha bitim imzolab hukumat bilan kelishuvga borishdi. Bu bitim 1921 yil 22 dekabrda imzolandi. Unga ko'ra sotsial – demokratik partiya etakchilari ishchilarning ish tashlashini qo'llab – quvvatlashdan va dehqonlar harakatini

uyushtirishdan voz kechdilar. Buning evaziga sotsial – demokratlar ochiq faoliyat olib borishga va parlament partiyasi sifatida siyosiy hayotda ishtirok etishga hukumatdan kafolat olishdi. SHunday qilib, sotsial – demokratik partiya rahbarlari fashistik tartib tarafdorlari bilan xayrihohlikka erishdi.

I. Betlen hukumati ishchilarga nisbatan qo‘rqitish usulini qo‘llash va sotsial – demokratlarning islohotchi rahbarlarini sotib olish orqali qattiqqo‘l siyosat olib bordi. Betlenning rejasida ishchilar sinfi va dehqonlarni siyosiy kuchlar bilan birlashmasligi alohida o‘rin egalladi.

Bu maqsadda 1921 yilda qabul qilingan “Umumiy tartibni himoyasi to‘g‘risida”gi qonun o‘z kuchida qoldirildi. Unga ko‘ra inqilobiy tashkilotlar va sotsialistik kuchning barcha so‘l qanotlarini Vengriyada faoliyat yuritishi qamoq xavfi ostida ta‘qiqlanardi.

20 yillar boshlaridagi siyosiy qurilishda fuqarolik va siyosiy huquqlar 1919 yil va undan oldingi davrga qaraganda ancha qisqargandi. I.Betlen hukumati tomonidan saylov tartibi katta mulkdorlar sinfining manfaatini ifodalardi. Fuqarolar ovoz huquqini harbiy davrga qaraganda kengaytirish va ayrim ayollarga saylovlarda ishtirok etishga ruxsat berish evaziga hukumat mayda burjuaziyadan o‘ziga asos yaratdi. SHunga qaramasdan saylovchilarning ko‘payishi amalda haqiqatga to‘g‘ri kelmasdi. Katta o‘troqlik senzi va boshqa chegaralanish sababli 1922 va 1926 yildagi saylovchilar soni ancha qisqargan edi. Undan tashqari saylovlar, ayrim okruglarni hisoblamaganda ochiq saylov asosida o‘tkazilar edi. Bu esa hukumat partiyasining parlamentda ko‘pchilik bo‘lishini ta‘minlardi.

I.Betlen tashkil qilgan Vengriyadagi siyosiy tizim tuzilishi ko‘ppartiyaviy parlament tizimidagi qiroli yo‘q qirollik edi. Siyosiy hokimiyatning yuqorisida regent M. Xorti turardi. U katta ishlarda muhim o‘rin egallab, qirolning imtiyoz va huquqlariga ega edi. M. Xorti armiya qo‘mondoni, parlament ustidan nazorat qilish va bosh vazirni tayinlash kabi masalalarni hal qilardi. Uning fikri boshqa muhim siyosiy masalalarda hal qiluvchi ahamiyatga ega edi.

Siyosiy tizim tuzilishida parlament regentdan keyin ikkinchi o‘rinda turardi. Parlament 1926 yilgacha bir palatali bo‘lib, shu yili I.Betlen hukumati eskicha yuqori

palata – magnatlar palatasini vujudga keltirdi. 1927 yildan bu palata o‘z faoliyatini boshladi. Uning a‘zolarining bir qismini regent oqsuyaklar va yuqori amaldorlar orasidan tayinlar, bir qismi oqsuyaklar oilasidan saylanardi. Parlamentda ko‘tarilgan barcha savollarni hal qilishda oxirgi so‘z ularning ixtiyorida edi. YUqori palataning yaratilishi bilan Betlen siyosiy tartib tuzilishi yakunlandi. Ushbu tartib urushlar orasidagi vaqtda burjuaziya va katta er egalarining ishchi va dehqonlardan ustunligini ta‘minlardi va fashistik xususiyatlarga ega edi.

I.Betlen hukumati tashqi siyosatda ham o‘z qarashlariga ega edi. Mamlakat ichida Trianon shartnomasidan norozilik kuchaygandi. Vengriyaning Fransiya, CHexoslovakiya bilan munosabati yaxshi emasdi. Ruminiya bilan ba‘zi iqtisodiy masalalarda aloqa qilinardi. Lekin Transilvaniya masalasi boshqa barcha masalalarni ortga surardi. Vengriyaning oshqa davlatlarga qaraganda YUgoslaviya bilan aloqasi yaxshi edi.

I. Betlen fashistik Italiya bilan aloqalarni yaxshilashga o‘z e‘tiborini qaratdi. Italiyada B. Mussolini hokimiyat tepasiga kelgandan keyin Vengriyani xalqaro maydonda qo‘llab – quvvatlay boshladi. 1927 yil 4 aprelda I.Betlen rasmiy tashrif bilan Italiyaga keldi va Benito Mussolini bilan muzokaralar olib bordi. I.Betlen Trianon shartnomasidan noroziliklarini va faol tashqi siyosat yuritishda yordam berishini so‘radi. Muzokaralarga ko‘ra I.Betlen va B.Mussolini bosqichma – bosqich “Buyuk Vengriya”ni qayta tiklashga kelishishdi. 1927 yil 5 aprelda do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolandi. SHartnoma beshta moddadan iborat bo‘lib, birinchi moddaga ko‘ra ikki davlat o‘rtasida mustahkam tinchlik va doimiy do‘stlik saqlanishi ko‘zda tutilgandi. Bu shartnoma 10 yil muddatga tuzilgani ham belgilab qo‘yildi.

SHuningdek ikkala hukumat rahbarlari bir – birlariga diplomatik va siyosiy yordam berish to‘g‘risidagi maxfiy kelishuvga ham erishishdi. Italiya maxfiy ravishda Vengriyaga qurol – yarog‘ jo‘natish ma’suliyatini oldi. I. Betlen va B. Mussolini muzokaralarining asosiysi ikki davlatning harbiy hamkorligiga qaratilgandi. SHu tariqa ikki fashistik davlat ittifoqi vujudga keldi.

Bu davrda Vengriyada bir qator fashistik tashkilotlar ham vujudga keldi. 1920 yilda shaxsan M. Xortining o'zi boshqaruvi ostida "Ritsarlar ordeni" tashkiloti tuzildi. Bu tashkilot fashistik xarakterga ega bo'lib, 20 mingdan ortiq a'zoga ega edi. SHuningdek 20 yillarda bir qator natsional – sotsialistik tashkilotlar ham mavjud edi.

1929 yilda boshlangan jahon iqtisodiy inqirozi Vengriya iqtisodiga shu yilning o'rtalaridan o'z ta'sirini ko'rsatdi. Sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxi tushib ketdi. 1931 yil o'rtalarida mamlakatda moliyaviy inqiroz boshlandi.

Inqiroz hukumatga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1931 yil iyundagi parlamentga saylovlarda Birlik partiyasi ko'pchilik ovozga ega bo'ldi. Lekin moliyaviy inqiroz mamlakatni shunchalik larzaga solgandiki, hatto chet el yordamlari ham Betlen hukumati saqlab qololmadi. O'n yillik boshqaruvdan so'ng 1931 yil 18 avgustda I.Betlen hukumati iste'fo berdi.

Tezda graf Dyula Karoyi boshchiligida yangi hukumat tashkil etildi. Karoyi moliyaviy va katta er egalari doiralarini, fashistik hokimiyatni inqirozdan qutqarishga intildi va ish haqi, nafaqa, etim va bevalarga yordam pulini qisqartirish, soliqlarni oshirish yo'li bilan moliyaviy inqirozni bartaraf qilmoqchi bo'ldi. Xalq qarshiligini u qurol kuchi bilan bostirdi. 1932 yil yanvardagi inqilobiy chiqishlarini jandarmeriya va politsiya kuchi bilan bostirdi. D.Karoyi Fransiyani yordamiga erishmoqchi bo'ldi, lekin bu muvaffaqiyat keltirmadi. YAngi hukumatda ham inqiroz boshlandi. 1932 yil oktyabrda Karoyi iste'fo berdi.

* *

Bolgariya.

Fashistik boshqaruv hukumat tepasiga kelgan SHarqiy Evropa davlatlaridan yana biri Bolgariya edi. Bolgariya birinchi jahon urushida mag'lub davlatlar qatorida edi. SHuning uchun g'olib davlatlar talabini bajarishga majbur etildi. Bolgariya shohi Ferdinand o'g'li Boris foydasiga taxtdan voz kechdi. Bolgariya taxtiga 1918 yil Boris o'tirdi. 1919 yil 27 noyabrda Parij yonidagi Neyn – syur – Sen shaharchasida g'olib davlatlar bilan shartnoma imzolandi. Unga ko'ra Bolgariyaga faqat 20 ming kishilik armiya saqlashga ruxsat berildi, havo flotiga ega bo'lish man etildi. Mamlakat urush natijasida og'ir ahvolga tushib qolgan edi.

SHuning uchun shoh Bolgar Ziroatchilik Xalq Ittifoqi (BZXI) yo'lboshchisi Aleksandr Stambolskiyni qamoqdan chiqarishga va unga hukumatni topshirishga majbur bo'ldi. BZXI uch yil mobaynida hokimiyatni egallab turdi. 1923 yil 22 mayda xalq kengashiga saylovlarda kompartiya va BZXI birgalikda barcha ovozlarning 75 foizini olishdi. Biroq 1923 yil 9 iyunda harbiylar yordamida davlat to'ntarishi amalga oshirilib, davlat tepasiga Sofiya universiteti professori Aleksandr Sankovning fashistik hukumati keldi. A.Stambolskiy o'ldirildi, kasaba uyushmalari va ishchi tashkilotlari tarqatib yuborildi.

Davlat to'ntarishi muvaffaqiyatli amalga oshgandan so'ng shoh Boris III Koburskiy yangi hukumat tarkibi to'g'risidagi buyruqni imzoladi. Bu buyruq davlat to'ntarishi amalga oshirilganini ko'rsatardi.

YAngi hokimiyat tashkilotlarini shakllantirishni boshlaridayoq Harbiy liga rahbarlarining qarori asosiy o'rinni egalladi. Hukumat vazirlarini tasdiqlashda bu ligadagi shaxslar ham bor edi. Tashqaridan qaraganda rasman hukumatda diktatorlik belgilari ko'rinmasdi. Lekin davlatdagi asosiy rahbarlik lavozimlari harbiylar qo'lga o'tdi.

A. Sankov hukumatining davlat tuzilishi bir tomondan konstitutsiyaviy belgilariga ega bo'lib, parlament, parlamentga saylovlar, vazirlar kengashi, siyosiy partiyalar mavjud edi. Boshqa tomondan konstitutsiyadan tashqari bo'lgan yangi tashkilot tuzildi. Bu o'nlar Konventi bo'lib, Harbiy liga boshlig'i general I.Vilkovga yaqin bo'lgan harbiylardan tashkil topgan edi. O'nlar Konventi mavjudligi yangi tartib o'rnatilishini ta'minlardi. Harbiylar mamlakatdagi vaziyatning nazoratsiz xo'jayiniga aylanib qoldi. Ularning orasida general Vilkov alohida o'rin egallardi. Konvent Bolgariyada salmoqli kuch va vakolatlarga ega edi.

SHuningdek, A.Sankov siyosiy hokimiyatini mustahkamlash maqsadida yangi siyosiy partiya tuzdi. 1923 yil 10 avgustda "Demokratik kelishuv" siyosiy partiyasi tashkil qilindi. Lekin bu partiya fashistik xususiyatlarga ega emasdi. SHu sharoitda A.Sankov o'z hukmronligini mustahkamlash uchun parlamentga saylovlar o'tkazdi. 1923 yil 28 sentyabrda parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi. Saylov harbiylar nazorati

ostida tashkil etildi. “Demokratik kelishuv” partiyasi 247 ta o‘rindan 172 tasiga ega bo‘ldi. Bu bilan parlamentda ham A.Sankovning nazorati o‘rnatildi.

A.Sankov hukumati dastlabki kunlardan oq xalqqa qarshi zo‘ravonlik siyosatini olib bordi. Bu xalq noroziligiga sabab bo‘ldi. 1923 yil sentyabr oyida hukumatga qarshi isyon ko‘tarildi. Isyonchilarning asosiy maqsadi fashistik hukumatni ag‘darib tashlash edi. Isyon ayniqsa Bolgariyaning shimoliy g‘arbida kuchli tus oldi. Ular hukumat qo‘shinlariga bir qator zarb berishga ham erishishdi. SHunga qaramasdan isyon bostirildi. Isyondan so‘ng mahalliy hokimiyatlar qaytadan tuzildi. Politsiyada ham yangilanishlar bo‘lib, uning rahbari ham o‘zgartirildi. A.Sankov jazo choralarini ham kuchaytirdi. 1924 yil 4 yanvarda “Davlatni qo‘riqlash to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra hukumatga qarshi bo‘lgan tashkilotlar, shuningdek kommunistik partiya ta‘qiqlandi. Ko‘p odamlar qamoqqa olindi va otib tashlandi.

Tashqi siyosatda A.Sankov hukumati deyarli katta yutuqlarga erisha olmadi. A. Sankov kommunistlar o‘zining asosiy dushmani deb e‘lon qildi va SSSRni tan olmasligini bildirdi. SHu munosabat bilan A.Sankov Neyn shartnomasi ba‘zi bandlarini bekor qilishni so‘rab g‘arb davlatlariga murojaat qildi. Uning fikricha Bolgariyada qo‘shinlar soni ko‘paytirilishi lozim edi. Bu Italiya manfaatlarini ham to‘g‘ri kelardi. Lekin Mussolini o‘zining manfaati yo‘lida ittifoqchilar manfaatiga qarshi borolmasdi. CHunki Bolgariyada qo‘shinlar sonining kengaytirilishi YUGoslaviya uchun xavfli edi. Bolgariyaning YUGoslaviya, Gretsiya va Ruminiya bilan aloqalari yaxshi emasdi. Tashqi siyosat Bolgariyadagi fashistik tartibotni kuchsizligini ko‘rsatardi.

A.Sankovning hukumati to‘la fashistik bo‘lmay harbiy-fashistik xususiyatga ega edi. Hukmron doiralar ikkita markazga bo‘lingandi. Birinchi guruh fashistik siyosat etakchisi A.Sankov atrofida, ikkinchisi harbiy etakchi general Vilkov atrofida to‘plangandi. General Vilkov shoh Boris III ning ishonchiga kirgan shaxs edi. SHuning uchun A.Sankov unga qarshi borolmasdi. Unga qarshi borish shohga qarshi borishga teng degani edi. Harbiylar bilan ittifoq Sankov hukumatining inqiroziga olib keldi.

A.Sankovning mamlakatda yuritayotgan siyosati xalq noroziligini kuchaytirdi. 1925 yil yozidan nomigagina oppozitsiyada bo'lgan siyosiy partiyalar hukumatga qarshi faol kurash boshladi. "Demokratik kelishuv" partiyasida ham guruhlariga ajralish sodir bo'ldi. Birinchi guruh partiya etakchisi A.Sankov tarafida bo'lishdi. Ikkinchi guruh A.Lyapchev va A.Burov atrofida to'planishdi. Ular A.Sankovdan ichki ishlar vaziri I.Rusevni iste'foga chiqarishni so'rashdi. Lekin A.Sankov buni rad qildi. Harbiy liga a'zosi K.Georgiev parlamentda chiqishida uni qo'llab-quvvatladi. Bu A.Sankovni hokimiyatni saqlab qolishda muhim o'rin tutdi.

Biroq shoh Boris III ning qarori vaziyatni o'zgartirib yubordi. Harbiylar o'rtasidagi chiqishda Boris III A.Sankov yuritayotgan siyosatni qoraladi. Buning natijasida harbiylar o'rtasida ham bo'linish yuzaga keldi. Ularning bir qismi A.Sankov tarafida qolishdi, qolganlari I.Vilkov va uning rahnamosi Boris III tarafiga o'tdi.

Hukumatda ham parchalanish ko'zga tashlandi. Ko'pchilik vazirlar A.Sankovning tarafida bo'ldi. Faqatgina ikkita vazir I.Vilkovni yoniga o'tdi. Harbiy ligada ham A.Sankovning tarafdorlari bor edi. 1925 yil sentyabr oyida parlamentdagi chiqish paytida K.Georgiev ham buni bildirib o'tgandi. Lekin buning uchun Sankov shohning ishonchiga erishishi lozim edi.

1925 yil 30 dekabrda parlamentda nizo kelib chiqdi. A.Sankov muammoni hal qila olmadi. U vaqtdan yutish uchun parlament sessiyasini bir necha kunga to'xtatmoqchi bo'ldi. Lekin "Demokratik kelishuv" partiyasidan bo'lgan deputatlarning ko'pchiligi oppozitsiya bilan birgalikda bunga qarshi chiqdi. Bu Sankovga bo'lgan ishonch yo'qolganini anglatardi. 1926 yil 3 yanvarda A.Sankov iste'fo berdi.

1923 yil 4 yanvarida A.Lyapchev saroy tomonidan oldindan tayyorlangan hukumatni shakllantirdi.

SHunga qaramay Bolgariyadagi dastlabki fashistik hukumatning boshqaruviga yakun yasaldi. 1929 yili I.Vilkov ham siyosatdan ketishga majbur bo'ldi. Mamlakatni birin – ketin A.Lyapchev, A. Maminov va N. Mushanovlar boshqardi.

Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Bolgariyada bir qancha fashistik tashkilotlar tuzildi. Sankov davrida tuzilgan “Demokratik kelishuv” hukmron partiya bo‘lsada fashistik xususiyatga ega emasdi. 1932 yil may oyida bolgar natsional – sotsialistik ishchi partiyasi va “Bolgar natsional legion ittifoqi” tashkil etildi. SHu yilning oktyabrida “Natsional fashistcha do‘stlik” tashkiloti tuzildi. Lekin bu fashistik tashkilotlar kuchsiz edi. Ular o‘rtasidagi qarama – qarshilik fashistik harakatning kuchli bo‘lishiga yo‘l qo‘ymadi.

1932 yil may oyida A.Sankov “Demokratik kelishuv” partiyasidan o‘zining fashistik tashkilotiga asos soldi. Bu fashistik tashkilot natsional – sotsialistik harakat deb nom oldi. 1934 yilga kelib natsional – sotsialistik harakat 100 mingdan oshiq a‘zoga ega edi. Sankov tashkiloti ham boshqa fashistik guruhlarini o‘z atrofida to‘play olmadi. Bolgariyada hech qachon kuchli fashistik tashkilotlar bo‘lmadi.

30 yillarning boshida harbiylardan iborat “Zveno” tashkilotida o‘sish ko‘zga tashlandi. “Zveno” tashkiloti 1927 yilda Kimon Georgiev tomonidan tuzilgan edi. K.Georgiev Harbiy liga etakchilaridan biri D.Velchev bilan yaqin munosabatda edi. Sankovning ham Harbiy ligada tarafdorlari ko‘p edi. Sankov ular yordamida “Zveno”ni natsional – sotsialistik harakatga qo‘shib olishga harakat qildi. Lekin bunga D.Velchev qarshilik qildi.

1934 yil 19 mayda “Zveno” Harbiy liga yordamida davlat to‘ntarishini o‘tkazdi. Bolgariyada fashistcha ko‘rinishdagi harbiy diktatura o‘rnatildi. Polkovnik Kimon Georgiev boshchiligidagi harbiy doiralardan iborat yangi hukumat tuzildi. K.Georgiev hukumati 1876 yildan beri mavjud bo‘lgan Tirnovo konstitutsiyasini va parlamentni bekor qildi. Qonun chiqaruvchi vazifani vazirlar kengashi o‘z qo‘liga oldi. Barcha siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari ta‘qiqlandi. Demokratik erkinliklar butunlay yo‘q qilindi. K.Georgiev Bolgariya siyosiy hayotini yangilashga zo‘r berib intildi.

A.Sankov yangi tizimga qarshi chiqdi. U hukumat olib borayotgan siyosatda shoh Boris III ga qarshilikni uchratayotganini bildirdi. SHoh Borisga qarshilik K.Georgiev tizimini qo‘llab kelayotgan Harbiy liga va boshqa tashkilotlarda bo‘linishni yuzaga keltirdi. Bu K.Georgiev hukumatini kuchsizlanishiga olib keldi.

SHoh Boris III vaziyatdan qulay foydalandi. 1935 yil yanvarida Boris III D.Velchevni Harbiy liga rahbarligidan chetlashtirdi. Natijada K.Georgiev hukumati quladi.

1935 yil yanvarida K.Georgiev hukumati iste'fo berdi. K.Georgievning Bolgariyada olib borgan siyosati hokimiyatni Boris III qo'liga olishi uchun sharoit yaratib berdi. SHoh Boris III mamlakatdagi partiyalarni yo'q qilishdan xavfsirardi. Ularni yo'qotishni harbiy – fashistik hukumat amalga oshirdi. K.Georgiev hukumati iste'fosidan keyin Boris III butun hokimiyatni o'z qo'liga olishga qaror qildi. SHu maqsadda 1935 yil noyabrda Harbiy ligani parchalab tashladi.

1935 yil yanvaridan oktyabrgacha birin – ketin uchta hukumat mamlakatni boshqargandan so'ng noyabr oyida podsho mahkamasining boshlig'i Georgiy Koseivanov boshchiligida saroy amaldorlaridan iborat hukumat tuzildi. Uning hukumati 1940 yilga qadar mamlakatni boshqardi. Bu davrda butun hokimiyat shoh Boris III qo'lida markazlashdi. Monarxo – fashistik diktatura o'rnatildi. Bolgariyada partiyasiz tartib o'rnatildi. Siyosiy partiyalar ta'qiqlandi. Boris III mamlakatdagi boshqaruvning barchasini o'z qo'liga oldi. G.Koseivanov hukumati amalda qo'g'irchoq hukumat bo'lib qoldi.

Boris III tashqi siyosatda Neyi shartnomasini bekor qilishga va Bolgariyani Germaniya bilan yaqinlashtirishga harakat qildi. 1938 yil 31 iyulda Neyi shartnomasining barcha harbiy bandlari bekor qilindi. Neyi shartnomasiga ko'ra Bolgariya qo'shinlarining soni 20 mingdan oshmasligi belgilab qo'yilgandi. SHartnomaning bu bandi bekor qilingach Bolgariya qo'shinlari qaytadan chiqildi. Qurollanishga zo'r berildi.

Ikkinchi jahon urushi arafasida Bolgariyani Germaniya bilan munosabatlariga katta e'tibor qaratildi. Boris III Germaniya bilan yaqin aloqa o'rnatishga intildi. SHu maqsadda 1939 yil aprel va iyul oylarida Bolgariya bosh vaziri G.Koseivanov Germaniyada bo'ldi va Gitler bilan uchrashdi. 1939 yil iyulning boshlarida Gitlar bilan uchrashuv chog'ida ikki davlatning munosabati muhokama qilindi. Gitler Bolgariyani birinchi jahon urushidan beri Germaniyaning sodiq ittifoqchisi sifatida bilishini bildirdi.

Monarxo – fashizm davrida mamlakatda fashistik kuchlarning ko‘tarilishi ko‘zga tashlanmadi. Fashistik kuchlar ikkita yo‘nalishda shakllandi. Birinchi guruh shoh Boris III boshchiligidagi saroy guruhi bilan yaqinlashdi. Bu guruhga Stalskiy etakchiligidagi “Natsional fashistcha do‘stlik”, Kunsev rahbarligidagi bolgar natsional – sotsialistik ishchi partiyasi va boshqa bir qator fashistik guruhlar kirardi. Ikkinchi guruh bo‘lsa Bolgariyada o‘z hukmronliklarini o‘rnatishga intildi. Bu guruhga Sankovning natsional – sotsialistik harakati, ratniklar va legionerlar kirardi.

Sankov o‘zining partiyasini fashistik diktaturani siyosiy asosi sifatida ko‘rdi. U ochiq fashistik dastur bilan chiqdi va o‘zining ijtimoiy g‘oyasini to‘xtovsiz avj oldirtirdi. Sankovning ishchilar va mayda ishbilarmonlarni o‘z tarafiga og‘dirishga qilgan harakatlari muvaffaqiyat keltirmadi. Sankov Germaniya fashistlari bilan ham aloqa o‘rnatdi. Germaniyaning axborot vaziri Gibbels Sankov tashkilotini moliyaviy ta‘minlab turdi. Bu yordamga tayangan Sankov Bolgariyada hokimiyatni qo‘lga kiritishga urindi. 1936 yili shu maqsadda “Bolgar ziroatchilik xalq ittifoqi” etakchilari bilan bitim tuzdi. SHu yilning noyabrida u bolgar fyureri o‘rniga da‘vogarligini e‘lon qildi va hokimiyatni qo‘lga kiritishga urindi. Lekin Sankovning bu harakati muvaffaqiyat keltirmadi. Natijada Boris III Sankovni hukumat tarkibidan chiqarib yubordi.

Bolgariyadagi faol fashistik tashkilotlardan yana biri “Bolgar natsional legion ittifoqi” edi. U o‘zining faoliyatini 1930 yil oxirida “Bolgar vatanining himoyachilari ittifoqi” asosida boshlagandi. Bu tashkilotning rahbari Ivan Dochev edi. 1932 yil may oyida legionerlar tashkilotining birinchi qurultoyi bo‘lib o‘tib, unda tashkilotning dasturi va nizomi tasdiqlandi. Qurultoyda I.Dochev mamlakatning amaldagi rahbari sifatida yo‘lboshchi qilib ko‘rsatishdi. SHohga nisbatan legionerlar “milliy birlik belgisi va yuqori nazoratchi” sifatida qarashdi. Bu millatchi va irqchi yarim harbiy tashkilot Bolgariyada gitlercha ko‘rinishdagi ochiq fashistik diktatura o‘rnatish tarafdori edi. Legionerlar demokratik harakatlarga qarshi kurashda politsiyaga yordam berardi. 1937 yil 13 – 15 martdagi talabalar namoyishini tarqatishda legionerlar bevosita ishtirok etdi.

1938 – 1939 yillarda legionerlar tashkiloti ichida rahbarlik uchun ikki guruh oʻrtasida kurash kelib chiqdi. Bir ishchi guruhni Ivan Dochev boshqarardi. Ikkinchi guruhga Iliya Stanev rahbarlik qildi. 1939 yilda legionerlarning boshligʻi boʻlgan sobiq harbiy vazir general Xristo Lukov ikki guruhni birlashtirdi. Gitlerchilar bilan aloqa oʻrnatgan X.Lukov bolgar fyureri oʻrniga daʼvogarlik qila boshladi. Nikola Minkov boshchiligidagi “YOsh Bolgariya”ning kichik guruhi ham legionerlar tarkibiga qoʻshildi.

1936 yili Sofiya universiteti agronomlik fakulteti professori Asen Kantarjiev boshchiligidagi “Bolgariya yuksalishi uchun kurashchilar(ratnik) ittifoqi” fashistik tashkiloti tuzildi. Uning etakchilaridan yana biri Petr Gabrovskiy edi. Ratniklar tashkiloti legionerlar ittifoqi singari nemis fashistlari tomonidan qoʻllab – quvvatlandi. Legionerlardan farqli ravishda ratniklar mamlakat siyosiy munosabatlarda tajribasi boʻlgan qatlam yordamida shoh tomonidan boshqarilishini istardi. Ratniklar demokratik tashkilotlar, kommunistlar va yahudiylarga qarshi kurash olib borishdi. Ratniklar tashkilotining aʼzolari yashirin demokratik uyushmalar tarkibiga kirishga va uni ichdan parchalashga harakat qildi. 1938 yili mayida ratniklar Sofiyaning yahudiylar yashaydigan hududi tartibsizlik uyushtirishga urinishdi va yahudiylar doʻkonlarini buzib tashlashdi.

K.Georgievning harbiy – fashistik diktaturasi Bolgariyada monarxo – fashizm oʻrnatilishiga yordam berdi. Fashistik tashkilotlar boʻlsa, etarli kuchga ega boʻlmaganliklarini sababli hokimiyatni egallash maqsadlariga etishmadi. Bundan tashqari fashistik tashkilotlar oʻrtasidagi va ularning ichidagi raqobat ham bunga yoʻl qoʻymadi. Natijada Bolgariyada fashizm monarxo – fashistik shaklda rivojlandi.

* *

Rumıniya.

Ruminiya birinchi jahon urushida Antanta tarafida turib qatnashdi va gʻolib davlatlar qatorida boʻldi.

Versal shartnomasi bo'yicha Transilvaniya, Bukovina, Bessarabiya va Banatni oldi. Uning hududi 2 barobar kengayib, aholisi 7,7 mln. kishidan 17,5 mln.gacha ko'paydi.

Ruminiyada bu davrda Gogensollernlar sulolasi vakillari hukm surardi. Ruminiya qiroli Ferdinand edi. Mamlakatda hokimiyatni amalda o'zaro bo'lishadigan uchta siyosiy guruh – natsional-saranistlar partiyasi, “xalq partiyasi” va natsional-liberal partiya bor edi. Ular saylovlarda bir-birini almashtirar, saylovlar orasida ularni qirol hokimiyati almashtirardi. Qirol hokimiyati ham o'z obro'siga ega edi.

Ruminiyada fashistik to'ntarish amalga oshirilmagan bo'lsada, lekin bu davlatda bir qator fashistik tashkilotlar aynan 1920 yillarda vujudga keldi. Hukumat yurt ichida ishchilar kurashini bostirish, mayda millatlarni ezish siyosatini olib borardi. Bu maqsadda fashistik uyushmalarni qo'llab – quvvatlab, ularni inqilobiy harakatga qarshi zarba beruvchi kuchga aylantirmoqchi bo'ldi.

Ushbu uyushmalarning alohida jihati shunda ediki, ular millatchilik va irqchilik ruhida bo'lib, ommani ayniqsa dinga berilgan qishloq aholisini o'ziga jalb etishda dindan foydalanardi.

Bu borada Ruminiyadagi fashistik rahnamolardan biri Korneliu Kodryanu misol bo'la oladi. Qizig'i shundaki, u nemis ayoli va polyak katoligini o'g'li bo'lib, familiyasini ruminchaga moslashtirdi va o'zini “rumin millati himoyachisi” va mamlakatdagi pravoslav dinining etakchisi deb e'lon qildi. Aslida esa unga Italiyada hukmronlikni egallagan Mussolinining shuhrati tinchlik va xotirjamlik bermasdi.

Kodryanu ishini YAssada mamlakatdagi birinchi fashistik guruhlardan biri – “Xristian talabalar assotsiatsiyasi”ni tashkil qilishdan boshladi. Lekin u bor – yo'g'i 46 odamni jalb eta oldi. Bu o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun juda oz edi. SHu sababdan keyinchalik rahbarlikni o'z qo'liga olish maqsadida o'z safdoshlari bilan “Natsional-xristian himoya liga”ga qo'shildi. Bu fashistik guruhga o'zini “zamonaviy antisemetizm otasi” deb atagan YAssa universiteti professori A.Kuza rahbarlik qilar edi.

Kodryanu va uning tarafdorlari 1923 yili parlament tomonidan yahudiylarga fuqarolik huquqi berishi to'g'risidagi qonun qabul qilinganligi tufayli liga

uyushtirgan qonli tartibsizliklarda faol qatnashdi. Undan so'ng g'alayonchilar namoyish uyushtirdilar. Namoyish vaqtida Ruminiya bayrog'iga svastika qo'ydilar. SHu vaqtning o'zida ular bu qonunni bekor qilishni so'rab bosh vazirga talabnoma jo'natdilar.

Aytish kerakki, bu qonun majlislarida taraqqiyotga ashaddiy qarshi bo'lgan deputatlar qatnashadigan parlamentda qabul qilingan edi. Qonun ularning tashabbusi bilan emas, Versal tinchlik konferensiyasi qarori va Antantaning bosimi bilan chiqarilgan edi. SHu sababli u bekor qilinishi mumkin emasdi.

O'z talablariga rad javobini olgach, liga a'zolarining bir guruhi K.Kodrianu va I.Motsa rahbarligida terror uyushtirishga qaror qilishdi va unda o'ldirilishi kerak bo'lgan shaxslarni ro'yxatini tuzishdi. Fitnachilar hibsga olindi va javobgarlikka tortildi. Voqealarning borishiga katta kuchlar aralashdi. Ayblanuvchilar hayrixox bo'ldilar. Ular oqlandilar, qilgan jinoyatlari esa faqatgina qog'ozda qoldi. Oqlanganlar orasida I.Motsa ham bor edi. U so'roq paytida ayblanuvchilardan birini sotqinlikda ayblab otib o'ldirgan edi. Javobgarlikni sezmagan Kodrianu yanada battar harakatlandi. 1924 yil may oyida Kodrianu ligani boshqa rahbarlari bilan birgalikda YAssa politsiya rahbari buyrug'iga binoan qamoqqa olindi. Ozodlikka chiqqandan so'ng Kodrianu uni ish joyida otib o'ldirdi. Sud qotil fashistni yana oqlab chiqdi, hatto ba'zilar uni "milliy qahramon" deb e'lon qildi. Buning hammasi qattiqqo'l rumin siyosatchilarining fashizm sharoitini yaratishga qiziqishlari tufayli edi.

Kodrianuning o'zi ham vaziyatni shunday baholadi. 1925 yili "Natsional-xristian himoya ligasi" ichida K.Kodrianu bilan A.Kuza o'rtasida ba'zi masalalar yuzasidan muammo kelib chiqdi. K.Kodrianu va I.Motsa Fransiyaga ketdi. SHu bilan muammo bartaraf bo'lgandek ko'rindi. Kodrianu Fransiyadan qaytib kelgach, A.Kuzani chetga surib ligani rahbari bo'lishi uchun harakat qildi. Lekin o'zini "Gitlarning g'oyaviy davomchisi" deb atagan A.Kuzaning tarafdorlari ko'pchilikni tashkil qildi. Engilgan Kodrianu o'z guruhi bilan ligadan chiqdi va 1927 yili yangi fashistik uyushma tuzdi. Uni dinga moyillarni inobatga olib, "Mixail Arxangel legioni" deb atadi.

Kodrianu yangi tashkilotni “siyosiy partiyaga qaraganda tezda maktab yoki qo‘shin bo‘ladi” deb e‘lon qildi. Amalda “Mixail Arxangel legioni” uchchalasi ham bo‘ldi. Bu inqilobiy harakterga qarshi kurash hokimiyatni egallash va mamlakatda fashistik tartibni o‘rnatish uchun gitlerchilarning shturmchilari namunasida qurollangan harbiylashgan tashkilot edi.

Legion rahbarlari asl maqsadlarini yashirib, o‘zlarini “vatan yuksalishi” va “rumin xalq manfaatlarini” uchun kurashuvchi deb e‘lon qilishardi. 1929 yil yanvarida “Mixail Arxangel legioni” M. Stelesku boshchiligida Galatse faoliyat olib borayotgan “Xoch birodarlari” fashistik guruhi bilan qo‘shildi. SHundan so‘ng 1931 yildan boshlab “Temir gvardiya” nomini olgan harbiy tashkilotga aylandi. Temirgvardiyachilar nemis va italyan fashistlariga ergashib, sariq fonda ko‘k svastika nishonasi taqalgan maxsus kiyimlarni kiyib oldilar. Lekin ularning kiyimi qora yoki jigarrang bo‘lmay, yashil rangda edi. Kuza tarafdorlariniki bo‘lsa ko‘k rangda bo‘ldi.

Legionerlarning boshlang‘ich tashkilotlariga har saylanadigan boshliqlar qo‘yildi. Ular “Temir gvardiya”ning shahar, o‘lka va viloyat tashkilotlarini boshqarardi. Boshliqlarning buyruqlari so‘zsiz bajaralishi kerak edi. Bo‘ysunmaganlar qattiq jazolanardi, hatto jismoniy kuch ishlatishardi va yo‘q qilinardi. Temirgvardiyachilar beshta guruhga bo‘lingan edi. “Xoch birodarlari” deb atalgan guruhga 14 yoshdan 20 yoshgacha bo‘lganlar kirar edi. Legionerlar korpusini 21dan 28 yoshgacha bo‘lganlar tashkil qilardi. Talabalar alohida qismga birlashgan bo‘lib, ayollar qismi ham mavjud edi. Siyosiy bo‘lim tarkibi esa katta yoshdagilardan iborat edi. 1933 yil may oyida terroristik ishlarni amalga oshirish uchun maxsus legionerlar bo‘linmasi tashkil etildi.

“Mixail Arxangel legioni” va uning asosida qurilgan “Temir Gvardiya” 1930 yillarning boshida oz sonli bo‘lib, omma orasida tayanchga ega emasdi. Hukmron doiralar, fashistik diktatura o‘rnatilishini kutganlar Kodrianu va “Temir Gvardiya”ning boshqa rahnamolarini janjalkashligini hisobga olmasliklari mumkin emasdi. SHuning uchun hukmron sinf vakillari ularni hukumat tepasida turuvchi siyosiy kuch sifatida ko‘rmay, faqatgina ulardan inqilobga qarshi qurol sifatida foydalanardi.

1930 yil 8 iyunda Ruminiya taxtiga Karol II o'tirdi. Karol II mamlakatda shaxsiy hokimiyatini o'rnatmoqchi bo'ldi. Lekin mamlakatda hukmron partiyalar hali kuchli emasdi. Karol II ning Ruminiya qiroli bo'lishi mamlakatda fashistik harakatlarning o'sishida ijobiy o'rin egalladi.

1930 yillarning boshida Ruminiya fashistik davlatlar qatoriga kirmasdi. Ruminiyada natsional – saranistik partiyalar hukumatni boshqarar edi. Qirol hokimiyati bo'lsa cheklangan xususiyatga ega edi. 1933 yilda Germaniyada Gitlarning hokimiyat tepasiga kelishi Ruminiyada fashistik harakatlarning o'sishiga turtki berdi.

Bosh vazir G.Tatareskuning ukasi SH.Tataresku tomonidan rumin natsional – sotsialistik partiyasi tuzildi. U o'zining kam sonli partiyasini kuchaytirishga intildi. SHu maqsadda 1933 yilning kuzida Gitlerdan yordam olish uchun jo'nadi. Lekin SH.Tataresku Berlinda o'z maqsadlarini amalga oshirolmadi. Gitlarning Ruminiya bilan munosabatda o'z rejalari bor edi va bunga hali vaqt etib kelmagandi. Germaniya uchun Ruminiyadagi hozirgi hukumatning olib borayotgan siyosati ma'qul edi.

Berlindan muvaffaqiyatsiz qaytgan SH.Tataresku o'zining kam sonli natsional – sotsialistik partiyasi bilan Oktavian Goganing natsional – agrar partiyasi tarkibiga qo'shildi. 1935 yil boshida natsional – agrar partiya A.Kuzaning “natsional – xristian himoya ligasi” bilan birikishi natijasida yangi fashistik natsional – xristian partiyasi tashkil topdi. Natsional – xristian partiya mamlakatda “Temir Gvardiya”dan keyingi etakchi fashistik kuch bo'lib qoldi.

Ruminiyadagi yana bir fashistik tashkilot general N. Radesku tomonidan tuzilgan “Ruminlashtirish uchun salb yurishi” tashkiloti edi. Bu tashkilot “Temir Gvardiya” bilan mahfiy aloqa o'rnatgan edi. Ruminiyadagi fashistik tashkilotlar hokimiyat uchun kurashda o'z qarashlariga ega edi. “Temir Gvardiya” Ruminiyada gitlercha ko'rinishdagi fashistik diktatura o'rnatish tarafdori edi. Goga – Kuzaning natsional – xristian partiyasi esa mamlakatdagi parlament va ko'ppartiyaviylik tartibini saqlab qolishni istardi. N.Radesku tashkiloti italyancha fashistik ko'rinishga moyil edilar. Ular Ruminiyada parlament tartibini tugatib, monarxo – fashizmni o'rnatishni xohlardi.

Bu fashistik guruhlar bir – birlari bilan doimiy dushmanlik kayfiyatida bo‘ldi. “Temir Gvardiya” kuzistlarga birlashishni taklif qildi. Lekin Kuza bu taklifni rad qildi. SHu bilan birga ularni “masxarabozlar to‘dasi”, “donkixotcha legionerlar” deb atadi. Asosiy hujum “Temir Gvardiya” rahbari K.Kodrianuga qaratildi. Kuza uni “ahmoqlar xudosi” deb masxara qildi.

Natsional – saranistik partiya etakchilaridan biri A.Vayda – Voevod fashistik tashkilotlarni yagona partiyaga birlashtirishga harakat qildi. 1935 yil fevralida natsional – saranistik partiyadan chiqqan A.Vayda – Voevod “Rumin fronti” fashistik partiyasini tuzdi. Lekin fashistik guruhlarini birlashtirishni A.Vayda-Voevod uddalay olmadi.

Boshqa fashistik tashkilotlarga qaraganda “Temir Gvardiya” yuqori doiralarning qo‘llab – quvvatlashiga erishdi. 1928 yili hokimiyat tepasiga kelgan natsional – saranistlar hukumati inqilobiy harakatlarga qarshi kurashda “Temir Gvardiya” bilan aloqa o‘rnatdi. Ichki ishlar vaziri A.Vayda – Voevod “Temir Gvardiya”ga siyosiy, moliyaviy va boshqa yordamlar berishini bildirdi. Natsional – liberal partiya ham “Temir Gvardiya” bilan shunday munosabatda edi.

Qirol Karol II ham mamlakatda o‘zining shaxsiy fashistik tartibotini o‘rnatmoqchi edi. Lekin bunga mamlakatning etakchi partiyalari yo‘l qo‘ymas edi. Karol II ning obro‘sigga to‘siq bo‘lgan asosiy omillardan biri Elena Lupesku bilan bo‘lgan munosabatlari edi. Karol II E.Lupeskuga 1921 yilda uylangan bo‘lib, shu tufayli uzoq yillar Ruminiyadan tashqarida yashagandi. E. Lupeskuni yahudiy millatiga mansub deb ayblashardi. SHuning uchun Karol II qirol Ferdinand davrida Ruminiyadan chiqarib yuborilgandi. Hatto 1927 yili Ferdinand vafot etgandan keyin ham natsional – liberallar hukumati Karol II ni Ruminiyaga qaytishiga qarshi chiqdi. Qirollik taxtiga esa uning o‘g‘li Mixay o‘tkazildi. Faqat natsional – saranistlar hukumat tepasiga kelgach Karol II Ruminiyaga qaytib keldi.

Karol II ham o‘zining diktaturasini o‘rnatish maqsadida “Temir Gvardiya”ni qo‘llab – quvvatladi. Dastlab u “Temir Gvardiya”ga maxfiy ravishda yordam berdi. 1932 yil boshida Karol II “Temir gvardiya”ga yordam berishga tayyorligini va unga

ishonishini bildirdi. Mamlakatdagi barcha etakchi siyosiy kuchlar “Temir Gvardiya”dan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishga harakat qilardi.

Hukmron doiralarning moliyaviy va siyosiy yordami tufayli 30 yillarning birinchi yarmida “Temir Gvardiya” etaksi siyosiy kuchlardan biriga aylandi. “Temir Gvardiya” 1931 yilgi parlament saylovlarida 17 nomzodini ko‘rsatdi. Lekin parlamentdan birorta ham joy egallay olmadi. SHunga qaramay keyingi yilgi saylovlar parlamentdan 5 ta o‘rinni band qilishdi. Gitlarning Germaniyada hokimiyat tepasiga kelishi temirgvardiyachilar harakatini faollashtirdi. Ular mamlakatda hokimiyatni egallash uchun kurash boshladi. Bu maqsadda tartibsizliklar uyushtirildi. Natsional – saranistik hukumat muammoni hal qila olmadi.

1933 yil dekabridagi saylovlarda natsional – liberal partiya 55% ovoz oldi va uning vakili I.Duka yangi hukumatni shakllantirdi. I.Duka Kodryanu tashkilotini ta’qiqlash to‘g‘risida buyruq chiqardi. Bir vaqtning o‘zida bu tashkilotning bir qancha faollari hibsga olindi. Bunga javoban temirgvardiyachilar I.Dukaga suiqasd uyushtirishdi. 1933 yil 29 dekabrda I.Duka temirgvardiyachilar tomonidan o‘ldirildi. Qotillar qo‘lga olindi va “Temirgvardiya”ga aloqadorligi aniqlandi. SHundan so‘ng ko‘plab temirgvardiyachilar va uning bir nechta etakchilari qamoqqa olindi.

Kodryanu bo‘lsa qirolning sevgilisi E.Lupeskuning villasiga yashirindi. Bundan xabar topgan Karol II u bilan muzokara olish uchun jo‘nadi. Karol II Kodryanuga hamkorlikni taklif qildi. Kodryanu “Temir Gvardiya”ni qirol nazorati ostiga o‘tishini rad qildi. Karol II nafaqat temirgvardiyachilar yordamiga muhtoj edi, shuningdek ulardan xavfsirardi. Suhbat chog‘ida ular bir kelishuvga erishishdi. Kodryanu qirol va uning atrofdagilariga hujum qilmaslikka va’da berdi. Karol II Kodryanu va uning tarafdorlarini xavfsizligini ta’minlashini bildirdi.

SHundan so‘ng Kodryanu o‘zini rumin politsiyasining qo‘liga topshirdi. 1934 yil martida jinoyatchilar ustidan sud jarayoni bo‘lib o‘tdi. Sud Dukani o‘ldirgan uchta qotilni bir umrlik qamoq jazosiga hukm qildi. Qolgan temirgvardiyachilar, shu jumladan Kodryanu ozod qilindi. “Temir Gvardiya” parlament tomonidan ta’qiqlandi. Lekin u amalda faoliyatini to‘xtatmadi. Karol II bosh vazir G.Tataresku orqali uni moliyaviy ta’minlab turdi. Dukaning o‘limidan keyin hukumat rahbari

bo'lgan G.Tataresku ham temirgvardiyachilar va boshqa fashistik guruhlarni qo'llab – quvvatladi.

1934 yil dekabrda “Temir Gvardiya” asosida “Hamisha vatan uchun” siyosiy partiyasi tuzildi. Uning boshlig'i etib rasman knyaz Z.Kantakuzino – Granicheru tayinlandi. Amalda rahbarlik Kodryanuning qo'lida qoldi.

Lekin tez orada “Temir Gvardiya”ga etakchilik qilish borasida K.Kodryanu va uning yordamchisi Stelesku o'rtasida kutilmagan holda ichki kurash boshlandi. Kodryanu yordamchisini yo'qotish maqsadida unga eng xavfli topshiriq berdi. Topshiriqni bajarish vaqtida Stelesku hibsga olindi. U 1935 yil oktyabrda qamoqdan yozgan xatida Kodryanuni “Temir gvardiya”ni o'zining shaxsiy kuchiga aylantirmoqchilikda aybladi. Qamoqdan chiqqan Stelesku “Temir Gvardiya”ni rasmiy jihatdan bo'ldi. SHundan so'ng Kodryanu uni jismoniy yo'q qilishga qaror qildi. Kodryanuning buyrug'i bilan kasalxonada davolanayotgan Stelesku yaxshiylarcha o'ldirildi.

Stelesku o'limidan oldin Dukaga nisbatan uyushtirilgan qotillikni ma'lum darajada batafsil fosh qiluvchi bayonot bilan chiqqandi. Bu jamiyat talabi bilan hukumatning sud ishini qayta ko'rib chiqishi to'g'risida qaror chiqarishga olib keldi. Hukumat qaroriga javoban temirgvardiyachilar 1936 yil aprelida Tirgu – Mureshda s'ezd o'tkazishdi va unda natsional – saranistik partiyadan bo'lgan dushmanlarini jismoniy yo'q qilishga qaror qilishdi. Ularning ro'yhatida tashqi ishlar vaziri N.Titulesku, ichki ishlar vaziri A. Kalinesku bor edi. Kodryanu qirol yordamidan uzoqlashish maqsadida uning sevgilisi Elena Lupeskuni ham qora ro'yhatga kiritdi. CHunki Kodryanu “Temir Gvardiya”ni qirol qo'li ostiga o'tishini istamasdi. Tirgu – Muresh s'ezdidan keyin natsional – saranistik partiya vakillariga Kantakuzino Granicheru imzosi ostida xat jo'natildi. Unda siyosiy maydondan ketish yoki o'lim taklif etildi.

Temirgvardiyachilarning E.Lupeskuga qilgan tahdidiga qaramay Karol II ular bilan kelishishga harakat qildi. Kantakuzino Granicheru imzosi qo'yilgan xat suddagi asosiy dalil edi. Lekin qirollik sudi unda hech qanday jinoyat ko'rmayotganligini

bildirdi. Steleskuning o'ldirilishi yuzasidan sud engil hukm chiqardi. Kodryanu buyrug'i bilan qilingan qo'rqinchli jinoyatlarga umuman tegilmadi.

“Temir gvardiya” Gitler Germaniyasi bilan mustahkam aloqa o'rnatdi. Gitler “Temir gvardiya”ning Ruminiyadagi faoliyatini qo'llab – quvvatladi. Bu vaziyatda temirgvardiyalar qirol ostidagi qurol bo'lishini istashmadi. Ular mamlakatdagi hokimiyatni o'z qo'llariga olish uchun astoydil harakat qilishdi. Kodryanu 1937 yilni rumin fashizmining hal qiluvchi hujumi boshlanadigan “kurash va qurbonlar yili” deb e'lon qildi. Temirgvardiyachilarni keng miqyosda qurollantirish boshlandi.

Temirgvardiyachilar hokimiyatni egallash uchun saroy to'ntarishi amalga oshirishga qaror qilishdi. 1937 yil aprelida Kodryanu qirolning ukasi shahzoda Nikolae bilan aloqa o'rnatdi va uni birgalikda harakat qilishga ko'ndirdi. Amalga oshirilishi kerak bo'lgan reja ishlab chiqildi. Unga ko'ra shahzoda Nikolae bir vaqtning o'zida temirgvardiyachilar partiyasining rahbari va rumin armiyasining bosh qo'mondoni bo'lishi kerak edi. Harbiylar yordami bilan davlat to'ntarilishi amalga oshirilishi belgilandi. Lekin bundan Karol II xabar topdi. Nikolae uy qamog'iga olindi va saroy kengashi qarori bilan qirollik familiyasiga a'zolik huquqlaridan mahrum qilindi. SHunga qaramasdan Karol II “Temir gvardiya” bilan ittifoq tuzish uchun harakatni davom ettirdi va uni dushman sifatida ko'rmadi. U “Temir gvardiya”dan o'zining shaxsiy kuchi sifatida foydalanmoqchi edi. Karol II bu fashistik tashkilotni boshqarishni va Kodryanuni ikkinchi o'ringa surib qo'yishni istardi.

1937 yil 25 noyabrda natsional – saranistik partiya etakchisi YU.Maniu Kodryanu bilan “hujum qilmaslik to'g'risida”gi bitimni imzoladi. Bu bitimning imzolanishi natsional – saranistlar tomonidan “Temir gvardiya”ni qonuniy siyosiy kuch sifatida tan olinishini bildirardi. Bitimga natsional – liberallarning G.Bretianu etakchiligidagi guruhi ham qo'shildi.

YU.Maniu – K. Kodryanu – G.Bretianu bitimi Karol II ni xavfsirashga majbur qildi. CHunki bu bitim qarama – qarshi kuchlarning birlashishi bo'lib, qirol hokimiyati uchun xavfli edi. 1937 yil dekabrda saylovlarda G.Tatareskuning natsional – liberal hukumati mag'lubiyatga uchradi. Karol II saylovda kam ovoz

to'plaganiga qaramasdan "Temir gvardiya" bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lgan fashistik natsional – xristian partiyani hukumat tepasiga qo'yishga qaror qildi. Qirolning yaqin do'sti, huquqshunos I.Michesku davlat lavozimlaridan birini egallash maqsadida natsional – xristian partiya tarkibiga kirdi.

1937 yil 29 dekabrda natsional – xristian partiya rahbari O.Goga yangi hukumatni shakllantirdi. Bu partiyaning ko'zga ko'ringan etakchilaridan biri A.Kuza bosh vazir yordamchisi lavozimiga tayinladi. Uning o'g'li G.Kuza mehnat vaziri, I.Michesku tashqi ishlar vaziri lavozimlarini egallashdi. Qirolning taklifiga ko'ra A. Kalineskuga ichki ishlar vaziri, I.Jigurtuga savdo va sanoat vaziri lavozimlari berildi. Harbiy vazir o'rniga general Ion Antonesku taklif qilindi. Natijada davlat boshqaruvi fashistik hukumat qo'lga o'tdi. Ruminiya fashistik davlatlar tarkibiga qo'shildi.

O.Goganing hukumati mamlakat aholisini ruminlashtirish siyosatini olib bordi. 1938 yil 2 yanvarda bosh vazir Goga o'z dasturini e'lon qildi. Bu dastur Ruminiyadagi kam sonli millatlarga va yahudiylarga qarshi qaratilgan edi. Kuzistlar kam sonli millatlar ustidan kamsitishlar olib borishdi.

O.Goga tashqi siyosatda oldingi hukumatlardan farqli ravishda Germaniya bilan yaqinlashishga harakat qildi. Oldingi hukumatlar davrida Ruminiyaning tashqi siyosati asosan Angliya va Fransiya bilan hamkorlikka qaratilgan edi. Germaniya bilan bo'lgan aloqa yuksak darajada emasdi. N.Titulesku tashqi ishlar vazirligi davrida hududiy daxlsizlikni saqlab qolish maqsadida Fransiya suyanilgandi. Uning olib borayotgan siyosatidan Gitler Germaniyasi va temirgvardiyachilar o'z noroziliklarini bildirishgandi. Natijada Karol II 1936 yil avgustida N.Tituleskuning o'rniga V.Antoneskuni tayinlagandi. V.Antonesku Germaniya bilan munosabatlarni bir muncha yumshatishga erishgandi. O.Goga bo'lsa o'z tashqi siyosatida Germaniyaga suyanmoqchi bo'ldi. U Ruminiya chegaralari masalasida Berlining rasmiy yordamiga erishishga harakat qildi.

Ruminiyada Goganing fashistik hukumatini o'rnatilishi Angliya va Fransiyaning noroziligiga sabab bo'ldi. Lekin Karol II bu norozilikka qaramay Goga hukumatini davlat boshqaruvidan chetlashtirmadi. Lekin tez orada Gogani hokimiyatdan chetlashtiruvchi boshqa omil vujudga keldi. Karol II ning natsional –

xristianlarni hokimiyatga qo'yishdan asosiy maqsadi temirgvardiyachilarga qarshi kurash edi. Chunki natsional – xristianlar “Temir gvardiya” bilan dushmanlik kayfiyatida edi. Karol II bo'lsa shu dushmanlikdan foydalanmoqchi bo'ldi. Lekin kutilmaganda ikki fashistik tashkilotning o'zaro munosabatlarida o'zgarish ko'zga tashlandi. Goga – Kuza partiyasi “Temir gvardiya” bilan yangi saylovda birgalikda harakat qilishga kelishib oldi. SHu yo'l bilan ular butun hokimiyatni egallamoqchi bo'lishdi. Chunki natsional – xristianlarning qirol nazoratisiz mamlakatni boshqarishga kuchi etmasdi. “Temir gvardiya” bilan birlashuv esa butun hokimiyatni fashistlar nazorati ostiga o'tkazardi.

Ikkita fashistik tashkilotning ittifoqidan xavfsiragan etakchi partiya rahbarlari qirol dan chora ko'rishni so'radi. O'zining shaxsiy hokimiyatini o'rnatish uchun Karol II da qulay vaziyat yuzaga keldi.

1938 yil 10 fevralda Ruminiyada Karol II ning monarxo – fashistik diktaturasi o'rnatildi. SHu kuni hokimiyat boshqaruvini parlament tizimi bekor qilingani to'g'risida qirol buyrug'i chiqarildi va Goga hukumatining faoliyati to'xtatildi. M. Kristya boshchiligidagi yangi hukumat tashkil qilindi. Uning yordamchisi qilib G.Tataresku tayinlandi. I.Antonesku va A.Kalinesku hukumatdagi o'z o'rinlarini saqlab qoldi. Bu hukumat qirol diktaturasiga xizmat qiluvchi qurol bo'ldi. Butun hokimiyat Karol II qo'liga o'tdi.

1923 yilda qabul qilingan konstitutsiya bekor qilindi. 1938 yil 24 fevraldan yangi konstitutsiya kuchga kirdi. Bu konstitutsiya butun hokimiyatni qirol qo'lida bo'lishini ta'minladi. Karol II ning buyrug'i bilan barcha siyosiy partiya va tashkilotlarning faoliyati ta'qiqlandi.

Qirolning ushbu buyrug'idan keyin “Temir gvardiya” madaniy tashkilot ko'rinishda faoliyat olib bordi. Ular yangi tizimga ochiq qarshi chiqmadi. Balki o'z hokimiyatlarini o'rnatish maqsadida yashirin tarzda isyonga tayyorlana boshlashdi. Bu ma'lum bo'lgach, K.Kodryanu va “Temir gvardiya”ning boshqa etakchilari qirollik sudiga tortildi. 1938 yil 27 mayida qirollik sudi ular davlatga qarshi jinoyatda ayblab 10 yilga qamoqqa hukm qildi.

Karol II mamlakat tashqarisida bo'lgan paytida harbiy vazir I.Antonesku hokimiyatni o'z qo'liga olish maqsadida qamoqdagi "Temir gvardiya" rahbarlari bilan aloqa o'rnatdi. Bu ma'lum bo'lgach 1938 yil 29 noyabrdan 30 noyabrga o'tar kechasi K.Kodryanu va "Temir gvardiya" ning boshqa 13 ta etakchilari qamoqda otib tashlandi. Matbuotda esa ular qamoqdan qochishga uringan paytda otib o'ldirilgani e'lon qilindi. I.Antonesku bo'lsa lavozimidan bo'shatildi. "Temir gvardiya"ning yangi rahbari Xorma Sima Germaniyaga qochib ketdi.

"Temir gvardiya" rahbarlarining o'ldirilishi Germaniyaning noroziligiga sabab bo'ldi. Gering Kodryanuning o'limi Ruminiya bilan tuzilishi mumkin bo'lgan siyosiy kelishuvni yo'qqa chiqarganini bildirdi. Bunday ta'sirni kutmagan Karol II Berlinni tinchlantirish maqsadida tashqi ishlar vaziri lavozimiga N.Komnenning o'rniga o'zini germanparastligi bilan mashhur bo'lgan G.Gafenkuni tayinladi.

1938 yil 16 dekabrda Karol II saylovlarda bitta o'zi qatnashishi mumkin bo'lgan "Milliy tiklanish fronti" partiyasini e'lon qildi. Bu qirol diktaturasini ijtimoiy asosi bo'lishi kerak edi. "Milliy tiklanish fronti" partiyasining rahbari etib A.Kalinesku tayinlandi. 1939 yil 1 fevralda "Milliy tiklanish fronti" partiyasining birinchi hukumati shakllantirildi. Bosh vazir A.Kalinesku bo'ldi. Karol II Germaniya bilan aloqalarni yaxshilashga intildi. 1939 yil 23 martda Ruminiya Germaniya bilan "Iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash haqida"gi shartnomani imzoladi. Mazkur shartnoma bo'yicha Ruminiya iqtisodiyoti va siyosati nemis fashizmining nazorati ostida qoldi.

Umuman olganda 30 yillarda Ruminiyada bir nechta fashistik tashkilotlar vujudga keldi. Ularning orasida hokimiyat uchun kurashda "Temir gvardiya" etakchi siyosiy kuchga aylandi. Lekin uning rahbari K.Kodryanu hokimiyatni egallashga muvaffaq bo'lmadi. Ruminiyadagi Goga – Kuzaning fashistik hukumati bo'lsa qirol nazoratidan xalos bo'la olmadi. Mamlakatdagi fashistik kuchlarning birlashishi qirol hokimiyati uchun xavfni vujudga keltirdi. Natijada Karol II ning monarxo – fashistik tartibi o'rnatildi.

Vengriyani fashistlashtirishda general Dyula Gyombyosh o'zni katta bo'ldi. General Dyula Gyombyosh mamlakatdagi fashizmni ochiq – oydin tarafdori edi. U I. Betlen hukumati davrida o'ta o'ng kuchlarning rahbarlaridan biri bo'ldi. 1929 yilda mudofaa vaziri lavozimiga tayinlandi. Dyula Karoyi hukumati iste'fo bergach, 1932 yil 1 oktyabrda Dyula Gyombyosh yangi hukumatni shakllantirdi. U hokimiyatni kuchaytirish maqsadida hukumatga Xorti gvardiyasi va "Ritsar ordeni" tashkilotidan bo'lgan kishilarni taklif qildi. Ular inqilobiy kuchlarni bostirishda muhim o'rin tutardi. Gyombyoshning dasturida "venger millatini yuksaltirish" alohida o'rin egalladi. U venger millatini yuksaltirish uchun barchani sinfiy nizolarni unutishga va birlashishga chaqirdi. Faqat shundan so'nggina Vengriya inirozdan chiqishi mumkinligini bildirdi. 1933 yildan boshlab Vengriya boshqa mamlakatlar singari inqirozdan chiqa boshladi.

D.Gyombyosh 1934 yili hukumat partiyasini qayta tuzdi va uni "Milliy birlik" partiyasi deb nomladi. Boshqa siyosiy partiyalarni tugatishga harakat qilindi. Vengriya hukmron doiralari gitlercha ko'rinishdagi fashistik tartib o'rnatishni xohlardi. Bunga erishish uchun kasaba uyushmalari, sotsial – demokratik partiyalar yo'q qilinishi, oppozitsiyadagi liberal partiyalar qisqartirilishi kerak edi. Gyombyosh sotsial – demokratlar Vengriya siyosatida o'rin egallamasligini, ularning manfaatlarini davlat himoya qilishini bildirdi. 1933 yili Gyombyosh kommunistlar ustidan sud jarayonini o'tkazdi. Lekin bu safar u mag'lubiyatga uchradi. Kommunistlarni himoyasi uchun Vengriya mehnatkashlari ko'tarilishdi. O'lim jazosi olish kerak bo'lganlar bir umrlik qamoq jazosi bilan chegaralandi.

Gyombyosh o'z tashqi siyosatida Italiya bilan hamkorlikni davom ettirdi. Italiya Trianon tinchlik shartnomasini buzib, Vengriyani qurol – yarog' bilan ta'minlab turdi. Vengriya qurollanishni kuchaytirdi va urushga tayyorlana boshladi. 1933 yil iyulida Gyombyosh rasmiy tashrif bilan Germaniyada bo'ldi. Bu Gitler hokimiyatga kelgandan so'ng xorijiy hukumat rahbarlaridan birinchisining Germaniyaga tashrifi edi. Gyombyosh Gitler bilan uchrashuv chog'ida tashqi siyosatda Germaniyaga suyanishini bildirdi. Gitler Vengriyaning CHexoslovakiyaga bo'lgan hududiy da'volarini qo'llab – quvvatlashini aytdi.

Vengriyani Germaniya bilan yaqinlashishi Avstriya va Italiyani xavfsiratdi. 1933 yil iyulda Mussolini avstro-venger-italyan hamkorligini Gyombyoshga taklif qildi. Vengriya bosh vaziri tashqi ishlar vaziri Kalman Kanya bilan birgalikda Vena va Rimda bo'lishdi. 1933 yil 26 – 27 iyuldagi Mussolini bilan bo'lgan muzokaralar natijasida ikki fashistik davlat – Italiya va Vengriya o'rtasidagi munosabatlar uzoq davom etishi to'g'risida maxfiy bitim imzolandi. Bitimda nafaqat ikki davlatning siyosiy va iqtisodiy hamkorligi, shu bilan birga Germaniya bilan yaqinlashishi mumkinligi ko'rsatildi. Mussolini Vengriyaning hududiy da'volarida Vengriyani qo'llab – quvvatlashini aytdi. Gyombyosh o'z navbatida Vengriyadagi fashistik tartib mustahkamlashini bildirdi.

Bu vaqtda Italiya va Germaniya o'rtasidagi qarama – qarshilikka Vengriyaning ta'siri ham ko'tarildi. Germaniya Avstriyaga o'z bosimini o'tkazayotgan edi. 1934 yil fevralida Budapeshtda bo'lib o'tgan Avstriya va Italiya vakillari bilan muzokaralarda Avstriya mustaqilligini saqlash markazida bo'ldi. Bu masala yuzasidan 1934 yil martida Rimda Avstriya, Vengriya va Italiya hukumat rahbarlarining kengashi chaqirildi. Kengashning borishi Avstriya masalasida Mussolini va Gyombyoshning mustaqil fikrga ega ekanligini ko'rsatdi. Gyombyosh Mussolini bilan suhbat chog'ida Avstriya mustaqilligi Vengriya uchun qulayligini, lekin CHexoslovakiyaga qarshi kurashda Germaniyadan faol do'stlik kutayotganligidan unga qarshi chiqolmasligini bildirdi. SHunga qaramasdan 1934 yil 17 martda uch davlat o'rtasida Rim shartnomalari imzolandi. Bu uchta fashistik davlat hamkorligini anglatardi.

Gyombyosh Italiyaning Efiopiyaga qilgan urushini qo'llab – quvvatladi. Vengriya tashqi ishlar vaziri Kalman Kanya Millatlar Ligasining Italiyaga qarshi chiqargan sanksiyasiga qo'shilmasliklarini e'lon qildi.

Dyula Gyombyosh Vengriya ichki va tashqi siyosatida kuchli hokimiyatga ega edi. Uning mamlakatda ta'siri regent Miklosh Xortinikidan ham kuchayib borardi. Gyombyosh Vengriyada fashizmni mustahkamladi. Lekin 1936 yil oktyabrda u to'satdan vafot etdi. Vengriya ustidan to'la hokimlik yana M.Xortining qo'liga o'tdi. M.Xorti yangi hukumatni shakllantirishni Kalman Daraniga topshirdi. K.Darani Vengriyada D.Gyombyosh siyosatini davom ettirdi. Uning hukumati davrida

millatchilik va antisemitizm kundalik hodisaga aylandi. SHunigdek bir millatga yaqin ishchi va dehqonlarni siyosiy huquqlarini o'z ichiga olgan saylov qonuni isloh qilindi. 1938 yilgi parlament yig'ilishida M.Xortining diktatorlik vakolatlarini kengaytirish to'g'risida qonun qabul qilindi. K.Darani va undan keyingi hukumatlar D.Gyombyosh hukumatidek kuchli bo'lmadi.

K. Darani tashqi siyosatda ham D.Gyombyosh siyosatini davom ettirdi. Germaniya bilan tashqi savdo aloqalari o'sdi. 1936 yil 25 oktyabrda Italiya tashqi ishlar vaziri graf CHiano va Germaniya tashqi ishlar vaziri Neyrat ikki davlat o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitim imzoladi. Bu hamkorlik "Berlin – Rim o'qi" degan nom oldi. "Berlin – Rim o'qi"ning vujudga kelishi Vengriya uchun ham qulay sharoit tug'dirdi. Vengriya endilikda ikkala fashistik davlat bilan ham ochiq aloqa qilishi mumkin edi. 1937 yil 22 noyabrda K.Darani va tashqi ishlar vaziri Kanya Berlinda bo'ldi. Ular Gering bilan uchrashuv chog'ida Avstriya mustaqilligini tugatishga roziliklarini boldirishdi.

1938 yil 10 yanvardan 12 yanvargacha Budapeshtda Rim shartnomalarini imzolagan uch mamlakat vakillari kengashi o'tkazildi. Unda Italiyadan tashqi ishlar vaziri CHiano, Avstriyadan kansler SHushnig, Vengriyadan Darani va Kanya qatnashdi. Kengashda Germaniya bilan maxfiy hamkorlik, kommunizmga qarshi kurash, Vengriya va Avstriyaning Millatlar Ligasidan chiqish mumkinligi va "Antikomitern bitimi"ga munosabat masalalari muhokama qilindi. "Antikomitern bitimi" 1936 yil noyabr oyida Germaniya va YAponiya o'rtasida tuzilgan bo'lib, 1937 yil 6 noyabrda Italiya ham unga qo'shilgandi. Kengashda Avstriya mustaqilligini saqlash to'g'risida gapirilmadi.

1938 yil 13 martda Germaniya Avstriyani ishg'ol qildi. Avstriyani egallash chog'ida nemis qo'shinlari Vengriya chegarasidan o'tdi. Bu Vengriya mustaqilligi uchun to'g'ridan-to'g'ri xavf solardi. Natijada venger xalqining noroziligiga sabab bo'ldi. SHu sababli bosh vazir K.Darani iste'fo berishga majbur bo'ldi.

1938 yil 13 mayda Xorti Bela Imredini yangi hukumat rahbari etib tayinladi. U o'zining siyosatini asosini kuchli armiya tashkil qilish va qurollanishni besh yillik dasturini amalga oshirish deb e'lon qildi. Bu dastur avval 1938 yilning 5 martida

K.Darani tomonidan Dyoreda e'lon qilingandi. SHuning uchun ham "Dyore rejasi" nomini oldi. Unga ko'ra harbiy xarajatlarga 1 mlrd. penge ajratildi. B. Impredi ichki siyosatda oldingi xortist bosh vazirlari singari mamlakatdagi demokratik harakatlarga bosim o'tkazdi. Parlamentdagi chiqish chog'ida yashirin inqilobiy tashkilotlarni yo'q qilishga va'da berdi.

B.Impredi tashqi siyosatda "Berlin – Rim o'qi" davlatlari bilan hamkorlikni davom ettirdi. 1938 yil avgust – sentyabr oylarida regent Xorti, bosh vazir Impredi va tashqi ishlar vaziri Kanya rasmiy tashrif bilan Germaniyada bo'lishdi. U erda Gitler va Germaniya tashqi ishlar vaziri Ribbentror bilan muzokaralar olib borishdi. Muzokaralar vaqtida CHexoslovakiya masalasi muhokama qilindi. Unda Vengriyaning CHexoslovakiyaga bo'lgan hududiy da'volari ko'tarildi. 1938 yil 29-30 sentyabrda o'tkazilgan Myunxen konferensiyadagi Angliya va Fransiyaning taslimchilik siyosati CHexoslovakiya masalasini hal qildi. Lekin Vengriyanig talablari to'la qondirilmadi. Germaniya tomonidan Sudet viloyati bosib olingach Vengriyaga Slovakiya va Karpatorti Ukrainasining janubiy hududlari berilishga qaror qilindi. 1938 yil 2 noyabrda Vengriya tarkibiga Koshitse, Ujgorod va Mukachevo shaharlari kirgan ushbu hududlarni ishg'ol qildi. Impredi tomonidan qabul qilingan er islohoti to'g'risidagi qonuni hukmron doiralarning noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada Xorti hukumatni almashtirishga majbur bo'ldi.

1939 yil 16 fevralda Xorti graf Pal Telekini bosh vazir lavozimiga tayinladi. U ham fashistik ichki va tashqi siyosatni davom ettirdi. Pal Teleki hukumat partiyasini qayta tuzib, "Vengercha hayot partiyasi" deb nomladi. SHundan so'ng 1939 yil may oyida parlamentga saylovlar o'tkazildi. Unda "Vengercha hayot partiyasi" 260 o'rindan 183 tasiga ega bo'ldi.

Teleki tashqi siyosatida o'zgarishlar ko'zga tashlandi. U bir tomondan "Berlin – Rim o'qi" mamlakatlari bilan aloqalarni davom ettirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Angliya va Fransiya bilan munosabatlarni mustahkamlashga harakat qildi. 1939 yil 24 fevralda Vengriya tashqi ishlar vaziri Ishtvan CHaki "Antikomitern bitimi"ga qo'shilish to'g'risida shartnomani imzoladi. Bu voqea tufayli Gitler Vengriya tomonidan Karpatorti Ukrainasini bosib olishga rozilik bildirdi. 1939 yil 15 martda

Vengriya Karpatorti Ukrainasini ishgʻol qilib, CHexoslovakiyani tugatilishida ishtirok etdi.

Karpatorti Ukrainasini egallanishi Vengriyaning ishtahasini qoʻzgʻadi. Xortistlar Ruminiya va YUgoslaviya hududlariga ham koʻz tikdi. Ular “Buyuk Vengriya”ni tashkil qilish dasturini tuzib chiqdilar. SHu masala yuzasidan P.Teleki va tashqi ishlar vaziri I. CHaki 1939 yil 29 aprel – 2 mayda rasmiy tashrif bilan boʻlishdi. Germaniyada ular Gitler, Gibbentror, Gering va Gess bilan muzokaralar olib borishdi. Muzokaralarda Vengriyaning boʻlgʻusi urushdagi oʻrni, shuningdek YUgoslaviya va Ruminiya bilan munosabati muhokama qilindi.

P.Pelexi Italiya bilan munosabatlari ham yuqori darajada boʻlishiga intildi. Vengriya 1939 yil aprelda Italiya tomonidan Albaniyani bosib olinishini qoʻllab – quvvatladi. 1939 yil 18 – 21 aprelda P.Teleki va I.CHaki Rimda boʻlib, Mussolini va CHiano bilan uchrashdi. Teleki Italiyani Albaniya ustidan qozonilgan gʻalaba bilan tabrikladi va “Berlin – Rim oʻqi”ga sodiqligini bildirdi.

1930 yillarda Vengriyani xortistcha koʻrinishda rivojlantirish bilan bir qatorda fashistik tashkilotlarning oʻsishi ham koʻzga tashlanadi. Bu davrda yangi natsional – sotsialistik partiya va guruhlar tashkil etildi. Ular Germaniya bilan mustahkam aloqada boʻlishini hukumatdan talab qilishdi. SHunday guruhlardan biriga Fidel Palfi rahbarlik qildi.

U oʻzining moliyaviy ahvolini koʻtarishga intilib, Zoltan Meshkoning natsional – sotsialistik partiyasida rahbarlik oʻrinlaridan birini egallagandi. Lekin bu partiya boʻlinib ketdi. Uning aʼzolarini bir qismi Palfi tarafiga, boshqalari SHandor Feshtetich tomoniga oʻtdi. F.Palfi oʻz tarafdorlarini Dera shahrida, SH.Feshtetich esa Balatonada toʻpladi. SHunday natsional – sotsialistik partiya rahbarlaridan Ishtvan Baloga Xayduda, Z.Meshko Budapeshtda faoliyat yuritardi.

Tezda siyosiy maydonga isteʼfodagi mayor Ferens Salashi koʻtarildi. Dastlab u oʻz xizmatini sotsial – demokratik partiyalarga taklif qildi. Rad javobini olgan Salashi “hayotiy ittifoq” yashirin tashkilotini tuzdi. Ayni vaqtda “Millat erki partiyasi”ni qonuniy tashkil qildi. Salashi barcha natsional – sotsialistik guruhlarini yagona partiyaga birlashishiga chaqirdi.

F. Salashi o'z rejalarini amalga oshirish maqsadida alohida natsional – sotsialistik tashkilotlar rahbarlarini xungarizm g'oyasini qabul qilishga chaqirdi. Xungarizm bo'yicha Vengriyada natsional – sotsialistik dehqonlar davlati tuzilishi kerak edi. Sanoat ikkinchi o'rinda qolgandi. Salashining dasturi bo'yicha Vengriya butun Dunay havzasi ustidan hukmronlik qilish lozim edi.

Salashining qarashlari venger natsional – sotsialistlarning boshqa etakchilariga yoqmadi. Ularning fikricha Vengriya Germaniyaga yordamchi bo'lishi kerak edi. Salashining taklifiga javoban Palfi venger natsional – sotsialistlariga hech qanday dastur kerak emasligini, bu dastur allaqachon Gitler tomonidan tuzib chiqilganini bildirdi. Salashi ham Germaniya bilan aloqalarni mustahkamlash tarafdori edi.

Salashining venger xalqi baxti uchun Germaniya bilan aloqalarni kengaytirish to'g'risidagi chaqiriqlari Berlin bilan munosabatda Xortiga xavfli raqibni yuzaga keltirdi. SHuning uchun Xorti Salashini qo'lga olishga, agar bu amalga oshmasa uni yo'qotishga qaror qildi. 1937 yil 16 aprelda "Millat erki partiyasi" ta'qiqlandi. Salashiga esa parlamentdan o'rin va hukumat partiyasidan muhim lavozim va'da qilindi.

SHundan keyin Salashi hukumatga qarshi chiqa boshladi. U fashistik kuchlarni birlashtirishga yanada ko'proq harakat qildi. U parlament deputati Ishtvan Balogning venger natsional – sotsialistik partiyasini o'z tarafiga og'dirishga muvaffaq bo'ldi. 1937 yil 24 oktyabrda bu partiya Salashi tarafdorlari bilan birlashdi. Salashining yaqin yordamchisi, parlament deputati Kalman Gubai xungaristik ko'rinishdagi venger natsional – sotsialistik partiyasi tuzilganligini e'lon qildi. Politsiya nazorati ostida bo'lgan Salashi bu partiyaning dastlab yashirin tarzda boshqardi. Keyinchalik oshkora boshqarishga o'tdi. Salashi o'z partiyasini kuchaytirish maqsadida Germaniya va Italiya bilan aloqa o'rnatdi.

1938 yilning aprelda Xorti Salashiga hukumat bilan hamkorlik qilishni taklif qildi, evaziga esa partiyasini yo'q qilishni so'radi. Berlin va Rimning quvvatlashini sezgan Salashi Xortiga qarshi varaqalar tarqatish bilan bunga javob berdi. Varaqalarda Xortining xotini yahudiy deb ko'rsatilgan va shu sababdan uni davlat rahbari lavozimidan ketishi talab qilingan edi.

1938 yilning iyunida varaqalar tarqatgani uchun F. Salashi ikki oylik qamoqqa mahkum qilindi. Lekin hukm 400 penge jarima bilan almashtirilgani tufayli yangidan sud jarayoni o'tkazildi. 1938 yil 6 iyulda Salashi uch yilga qamoqqa mahkum qilindi. Uning partiyasi keyingi yilning fevralida ta'qiqlandi. Lekin oradan bir hafta o'tib, "To'qnash kelgan o'qlar" partiyasi nomi ostida qayta tuzilganini K.Gubai parlamentda e'lon qildi. Partiya a'zolari nilashistlar deb ham ataldi. 1939 yil may oyida parlamentga o'tkazilgan saylovlarda nilashistlar 33 ta o'ringa ega bo'ldi.

1939 yil 6 yanvarda B.Impredi o'zining "Vengercha hayot harakati" fashistik partiyasini tuzdi. SHuningdek Vengriyada oz sonli nemislarning natsional – sotsialistik tashkiloti – "folksbund" vujudga keltirildi. Uning rahbari Ferens Bash edi. 1939 yilgi parlament saylovlari "folksbund"dan ikkita deputat saylandi. Ular hukumat partiyasi tarkibida bo'lishdi. Bu bilan F.Bash "folksbund"ni siyosiy partiya emasligini isbotlamoqchi edi.

SHu bilan bir qatorda jamiyatning turli qatlamlarida ham fashistik tashkilotlar tuzildi. Oliy o'quv yurtlarida "Turul" fashistik uyushmasi tashkil qilindi. "Turul" talabalar orasida fashistik tamoyillar, antisemitistik dasturlarni targ'ib qildi. "Turul"da rahbarlik rolini Ene Eelleshi o'ynadi. Advokat va vrachlar orasida targ'ibot olib borish uchun maxsus fashistik tashkilotlar vujudga keltirildi. "Venger vrachlarining milliy birlashmasi" barcha kasalxona, ilmiy muassasalarda o'z nazoratlarini o'rnatishdi. F. Salashining tarafdorlaridan biri vrach SHandor CHia bu ittifoqda faol ishtirok etdi.

Umuman olganda fashizm Vengriyada xortistcha ko'rinishda rivojlandi. Bu monarxo – fashizmning ko'rinishlaridan biri edi. CHunki Xorti mamlakatda butunlay o'z nazoratini o'rnatgan bo'lib, qirollik vakolatlariga ega edi. Faqat general Gyombyoshgina boshqa hukumatlardan farqli ravishda fashizm mustaqil rivojlantirdi. Fashistik tashkilotlar birlashmagan bo'lib, hokimiyat uchun kurashda alohida harakat qilishdi. Ularning orasida hokimiyatni o'z qo'liga olish uchun Xortiga qarshi kurashda Salashining talablari vaqtinchalik jiddiy ahamiyat kasb etdi.

* * *

Umuman olganda SHarqiy Evropada oʻrnatilgan fashistik hokimiyatlar toza fashistik koʻrinishga ega boʻlmadi. Ular harbiy – fashistik va monarxo – fashistik koʻrinishda rivojlandi. Bolgariyadagi K.Georgiev hukumati va Vengriyadagi D.Gyombyosh hukumati harbiy – fashistik xususiyatga ega edi. K.Georgiev Harbiy liga bilan mustahkam aloqa oʻrnatgandi. General D.Gyombyosh boʻlsa hokimiyatni boshqarishda aʼzolari harbiylardan iborat “Ritsar ordeni” tashkilotiga tayanardi. Bolgariyada Boris III tomonidan butun hokimiyatni qoʻlga olinishi, Ruminiyada Karol II diktaturasining oʻrnatilishi tufayli bu mamlakatlar monarxo – fashistik rivojlanishi yoʻliga oʻtdi. Vengriyada Xorti diktaturasi ham monarxo – fashistik xususiyatga ega boʻldi. Chunki regent Xortining vakolatlari qirol vakolatlari bilan barobar edi. Ruminiyadagi Goga Kuzaning fashistik hukumati qirol nazoratidan tashqari mustaqil ish yurita olmadi.

Bu mamlakatlarda fashistik harakatlarning rivojlanishi koʻzga tashlandi. Ruminiyadagi “Temir gvardiya” hokimiyat uchun kurashda etakchi siyosiy kuchga aylandi. Temirgvardiyachilar oʻz raqiblariga nisbatan ayovsiz kurash olib bordi. Vengriyadagi fashistik guruhlar ichida nilashistlar partiyasining harakati bir muncha jiddiy tus oldi. Bolgariyada fashistik guruhlar oʻzaro ichki kurashlar tufayli kuchli boʻlolmadi.

YUqorida koʻrsatilgan mamlakatlardan tashqari CHexoslovakiya va YUgoslaviyada ham fashistik harakatlarning faollashishi koʻzga tashlandi. CHexoslovakiyada bu davrda Radola Gayda boshchiligidagi chexlarning fashistik partiyasi, Andrey Glinka rahbarligidagi slovaklarning fashistik partiyasi va Konrad Genleyn etakchiligidagi Sudet nemislarining fashistik partiyasi faoliyat olib borardi. SHuningdek Karpatori Ukrainasida Avgustin Voloshin boshchiligidagi ukrainlarning fashistik tashkiloti ham mavjud edi. Ularning ichida Sudet nemislari va Glinka partiyasi bir muncha kuchli edi.

Sudet viloyatidagi nemislarning fashistik tashkiloti 1918 yili “nemis natsional – sotsialistik ishchi partiya” nomi ostida tuzilgandi. 1932 yilda bu partiya etakchilari Germaniya natsional – sotsialistlari bilan aloqa oʻrnatib, Gitlarning barcha nemislarni Buyuk Germaniya ostida birlashtirish gʻoyasini qabul qilishdi. Bu CHexoslovakiya

davlatiga qarshi bo'lgani tufayli 1933 yil oktyabrda Sudet nemislarining fashistik partiyasi yopildi. 1934 yil 1 oktyabrda esa Konrad Genleyn tomonidan fashistik "Sudet – nemis vatan fronti" tashkiloti tuzildi. Karl German Frank uning birinchi yordamchisi bo'ldi. Berlindan berilgan buyruqqa ko'ra 1935 yilda bu tashkilot "Sudet – nemis natsional – sotsialistik partiya" deb nomlandi. SHu yildan boshlab K.Genleyn Germaniyadan yordam olib turdi. 1935 yilgi saylovlarda genleynchilar Germaniyadan 6 mln. marka miqdorida mablag' oldi. Natijada ular CHexoslovakiya parlamentida 44 ta o'ringa ega bo'ldi. 1938 yil 28 martda Konrad Genleyn va Karl German Frank Berlinda Gitler, Gess, Ribbentror bilan uchrashishdi. Geynlenchilar harakati Sudet viloyatini Germaniyaga qo'shib olinishiga olib keldi.

1918 yil dekabr oyida katolik cherkovi ruhoniysi Andrey Glinka tomonidan fashistik "Slovak xalq partiyasi"ga asos solingandi. Bu partiyaning etakchilaridan biri Voytex Tuka harbiylashgan "Rodobrona" guruhini tuzgandi. 1929 yil V.Tuka kamoqqa olindi. Uning ishini yaqin yordamchilari Sano Max, Ferdinand Durchanskiy va Karol Murgaslar davom ettirdi. 1933 yil avgust oyida A.Glinka slovak xalqining 1100 yilligi bilan tabriklab, Slovakiyaga avtonomiya berilishini qat'iy talab qildi. 1938 yil A.Glinka vafotidan so'ng uning o'rnini arxiepiskop Yozef Tiso egalladi. 1938 yil 6 oktyabrda Slovakiyaga avtonomiya berildi. V.Tuka esa qamoqdan ozod qilindi. 1938 yil 16-17 oktyabrda Berlinda slovak fashistlarining etakchilari F.Durchanskiy, S.Max, Karmazinlarning Gering bilan uchrashuvi bo'ldi. Slovakiya vakillari mustaqillikni qo'lga kiritish va Germaniya bilan mustahkam siyosiy, iqtisodiy va harbiy aloqa o'rnatishni taklif qildi. 1939 yil 14 martda Y.Tiso Slovakiya mustaqilligini e'lon qildi. YAngi davlatning rahbari Y.Tiso bo'ldi. V.Tuka bosh vazir yordamchisi, S.Max axborot vaziri lavozimlarini egalladi. 1938 yil 18 martda Germaniya bilan himoya to'g'risida shartnoma imzolandi. Unga ko'ra Slovakiyaning tashqi siyosati Germaniya qo'lidagi qo'g'irchoq davlat bo'lib qoldi.

YUgoslaviyadagi eng kuchli fashistik tashkilot xorvatlar tomonidan tashkil qilindi. 1929 yil 7 yanvarda advokat Ante Pavelich fashistik xorvat ustashlari tashkilotini tuzdi. Ustashlar Xorvatiya mustaqilligi uchun muzokarasiz kurashni tashviqot qildilar. Ular birinchi navbatda zo'ravonlik va isyon tarafdori bo'ldilar.

Ustashlarni Italiya va Vengriya moliyaviy va siyosiy jihatdan qo‘llab – quvvatladi. 1932 yili A.Pavelich Dalmatsiyada fuqarolar urushini boshlab yubordi. Ustashlar o‘z qo‘shini va politsiyasiga ega edi. 1934 yil 9 oktyabrda YUgoslaviya qiroli Aleksandr Marselda ustashlar tomonidan o‘ldirildi. Bu tarixga “Tevton qilichi” nomi bilan kirdi. Ustashlar tashkiloti kuchli harbiylashtirilgan edi. Ustashlar tashkilotida Ante Pavelichdan keyingi o‘rinlarda Slavko Kvaternik, Mexmed Aleybegovich, Bojidar Kavran, Mladen Lorkovich, Ante Vokich, YUray Rukovina, Dyuro Gruichlar turardi.

1934 yili YUgoslaviyada Dmitrie Letich tomonidan serblarning fashistik “Zbor” tashkiloti tuzildi. Bu tashkilot rumin va venger fashizmidan o‘rnak olishga intildi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Нуриддинов З.Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи (1917-1939). Т., 1963.
2. Язьков Е.Ф. История стран Европы и Америки в новейшее время. 1918-1949 гг. М., 2000.
3. История новейшего времени стран Европы и Америки (1918-1945). Под ред. Проф. Е.Ф.Язькова, М., 1969.
4. История стран Азии и Африки в новейшее время. М., Наука. 1976.
5. Новейшая история стран зарубежного Востока. М., Восточная литература. 1957.
6. Новейшая история стран зарубежной Азии и Африки. Л., Наука, 1983.

Қўшимча адабиётлар:

7. Мальков В.Л. Рузвельт Ф. Проблемы внутренней политики и дипломатии. М., 1988.
8. Мухин А.И. Австрия. М., 1979.
9. Сиёсий партиялар. Справочник. Тошкент, 1968.
10. Смирнов В.П. Новейшая история Франции. М., 1979.
11. Трухановский В.Г. Антони Иден. М., 1976.
12. Трухановский В.Г. Уистон Черчилль. М., 1977.
13. Уткин А.И. Дипломатия Вудро Вильсона. М., 1989.
14. Всемирная история в 12-ти томах. М.. Политиздат. 1960.
15. История Ирландии. Отв. Ред. Л.И.Гольман. М., Наука, 1980..
16. История Франции. Под рук. А.З.Манфреда в 3-х томах. М., Наука, 1972-1973.
17. История США в 4-х томах. М., Наука, 1980-1987.
18. История Италии в 3-х томах. М., Наука, 1970-1971.
19. История дипломатии в 5-ти томах. М., Наука, 1959-1960.
20. Розалиев Ю.Н. Новая и новейшая история стран Азии и Африки. М., Наука, 1987.
21. Новейшая история Китая. 1917-1970 гг. М., Наука, 1972.
22. Новейшая история Китая. 1928-1943 гг. М., Наука, 1984.
23. История Китая с древнейших времен до наших дней. М., Наука, 1974.
24. История национально-освободительной борьбы народов Африки в новейшее время. М., Наука. 1978.
25. [http: // English-www.hss.cmu.edu/history/](http://English-www.hss.cmu.edu/history/).
26. [http: // www.ukans.edu/history/VL/](http://www.ukans.edu/history/VL/)
27. [www. history.ru](http://www.history.ru)
28. <http://www.eu.spb.ru/history/index.htm>.
29. <http://history.hanover.edu/texts.htm>.

